

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti**

**FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH FAKULTETI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

IV bosqich "B" guruh talabasi

Nosirova Gulshanoy

Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
kafedrasi

O'zbek tilshunosligi
dosenti,
f.f.n. D.Nuronova

ANDIJON - 2016

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY

TAVSIFI.....

I BOB. Fonostilistikaning tadqiq darajasi va muammolari.....

1.1. O‘zbek tilshunosligida fonostilistikaning o‘rganilish darajasi.....

1.2. Fonostilistikaning tekshirish ob’ekti.....

II BOB. Nutq tovushlarining stilistik xususiyatlari.....

2.1. Tovushiy ramzga doir mulohazalar.....

2.2. Unli va undosh tovushlarga xos uslubiy xususiyatlar.....

III BOB. Supersegment fonetik vositalar va ularning uslubiy xususiyatlari.....
.....

3.1. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari.....

3.2. Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari.....

3.3. Urg‘uning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari.....

XULOSA.....

.....

FOYDALANILGAN
ADABIYOTLAR.....

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi tilshunoslar oldiga tilning nafaqat atash (nominativ), aloqa (kommunikativ), balki hissiy ta’sirchanlik (ekspreseiv) xususiyatlarini yanada chuhurroq, kengroq tadqiq qilish vazifasini qo‘ydi.

O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilning emotsional-ekspressiv xususiyatlari turli badiiy asarlar tili va uslubi misolida leksik, grammatik jihatdan o‘rganishga jadal kirishildi. Bu eohada jiddiy muvaffaqiyatlarga ham erishildi.

Ammo til fonetik vositalarining hissiy ta’sirchanligi, ayniqsa, badiiy tasvirdagi fonostilistik vositalarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilishni qoniqarli deb bo‘lmaydi. Bu borada barmoq bilan sanarli ishlar qilingan xolos.

Fonetik uslubiy vositalarning tadqiqot doirasi nnhoyatda kengdir

va bu soha oxirigacha tadqiq etilmagan. Holbuki, fonostilistikada nutqning vazifaviy uslublari bilan bog‘liq materiallarning akustik-artikulyasion hamda prosodik (ritmik-intonatsion) xususiyatlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Fonostilistikada orfoepiya bilan bog‘liq talaffuz stillarining vazifasini belgilash; nutq stillari, ayniqsa, badiiy nutq uslubida nutq tovushlari talaffuzining konnotativ ma’nolari, shuningdek, intonatsiya, pauza va urg‘u kabi supersegment elementlarning ishlatilishi bilan bog‘liq fonostilistik imkoniyatlarning uslubiy qo‘llanishini taxdil va tadqiq qilish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilish darajasi. O‘zbek tilshunosligida fonostilistika masalalari bir qadar tadqiq qilingan. Jumladan, intonatsiya, fonografik hodisalarga xos xususiyatlar atroflicha o‘rganilgan. Lekin fonostilistikaning ayrim nazariy masalalari, nutq tovushlarining talaffuzi hamda supersegment vositalar (intonatsiya, pauza, urg‘u kabilar)dagi konnotativ ma’nolar va ularning badiiy nutqdagi uslubiy xususiyatlari alohida tadqiq qilinmagan.

BMIning maqsad va vazifalari. Tadqiqot maqsadi fonetik vositalar va ularda ifodalangan konnotativ ma’nolarni aniqlash. O‘zbek badiiy nutqida (qisman boshqa nutq uslublari) fonostilistik vositalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

- fonostilistik vositalarning tadqiq darajasi va muammolarini o‘rganish;
- so‘zdagi nutq tovushlari talaffuzi bilan bog‘liq konnotativ ma’nolarni ochib berish;
- fonetik qiyofasi ayrim o‘zgargan so‘zlarning fonostilistik

xususiyatlarini bayon qilish;

- nutqda intonatsiyaning o‘rni va uslubiy xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish;

- pauzaning fonostilistik imkoniyatlarini belgilash;

- urg‘uning semantik-stilistik xususiyatlarini aniqlash;

- turli fonostilistik vositalardan foydalanishdagi so‘z san’atkorlarining o‘ziga xos uslubi yo‘nalishini belgilash.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, uch bob va umumiy xulosadan iborat. Ishning so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan. Ishning umumiy hajmi 58 betni tashkil etadi.

I BOB. FONOSTILISTIKANING TADQIQ DARAJASI VA MUAMMOLARI

1.1. O‘zbek tilshunosligida fonostilistikaning o‘rganilish

darajasi

Mamlakatimizda o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish borasida keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu milliy istiqlol g'oyasining amalga oshirilayotganligining amaliy natijasidir.

O'zbek tilshunosligi milliy istiqlol g'oyasi falsafasiga asoslanadi va istiqlol g'oyalarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Keyingi yillarda inson haqidagi fanlar – tibbiyot, fiziologiya, ruhshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar shiddat bilan taraqqiy etib bormoqda. Bularning barchasi tilshunoslik fanida aks etmasdan qolmaydi.

Lingvistik hodisalarni inson muloqoti nuqtai nazaridan turib tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning ilg'or yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bunday kommunikativ yondashish tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish uchun ilmiy nazariyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muloqotga bag'ishlangan bir qator tadqiqot ishlarida til xususiy-ijtimoiy, funksional-uslubiy, davriy, hududiy turlarga ajratilgan. Ayniqsa, ijtimoiy-uslubiy xarakterga ega bo'lgan tadqiqotlarga e'tibor kuchaymoqda. «Hech bir yangi hodisa (fonetik, lug'aviy, grammatik) til sistemasiga janrli-uslubiy sinovlar va qayta ishlovlarning uzoq va murakkab yo'lini bosib o'tmasdan kira olmaydi»¹.

Fonetik vositalarni uslubiy tahlil qilish masalalari faqatgina adabiyotshunos olimlarningina emas, balki tilshunoslarning ham diqqat markaziga aylanmoqda. O'zbek tilshunosligida stilistika sohasida bir qator ishlar olib borildi. Biroq bu borada ayrim masalalar: uslublar tasnifi, talqini, o'zbek lisoniy uslublarining tabiati, uslubiy hodisalarning yoritilishi va boshqalar hanuzgacha bahs-munozara

¹ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. - М.: Искусство, 1979. - 320 с.

ko‘rinishida qolmoqda.

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida fonostilistikaga, uning ob‘ekti bo‘lmish fonetik birliklar, fonetik hodisalar va fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda².

Fonostilistika o‘zi nima degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Falsafaning oddiydan murakkabga qat‘iyatiga amal qilgan holda fonostilistikani ilmiy tahlil qilish mumkin, ya‘ni tildagi segment birliklar – nutq tovushlari, tovush birikmalari, bo‘g‘in, (prosodik) – ohangning qattiq yoki yumshoqligi, baland yoki pastligi, cho‘ziq yoki qisqaligi, nutq bo‘laklarining ajratilishi va qo‘shilishi, musiqiylik, urg‘u dinamikasi, nutq tempining o‘zgarishi, pauzalar va ularning turlari, nutqiy me‘yor, adabiy talaffuzdagi ohangdoshlik (evfonologiya), tovushiy ramz (zvukosimvolizm), fonetik sinonimiya, so‘zlovchining hissiy holati, she‘rning ritmik va musiqiy tuzilishini tavsiflash va ayrimlarini fonetik-uslubiy tasniflash kerak. Jahon tilshunosligida fonostilistika yangi oqim sifatidagi bo‘lim bo‘lib shakllandi. Ammo uning shakllanishida antik faylasuf va allomalarining o‘z davridagi chiroyli so‘zlash, notiqlik, hattotlik san‘atlari va boshqa bir qator fonostilistikaga oid fikr va g‘oyalari asosiy zamin vazifasini bajardi.

O‘zbek tilshunosligining zabardast olimi, marhum professor A.G‘ulomov tomonidan fonostilistikaga oid dastlabki ma‘lumotlar – fonetik vositalar, ularning uslubiy vazifalari, fonetik uslublarning

² Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. - 2- сон. –Б. 24-28.

farqlanishi, soʻzlardagi ohang, ulardagi hissiy boʻyoq haqida aniq koʻrsatmalar berilgan³.

Professor E.Qilichev oʻz oʻquv qoʻllanmasida ustoz A.Gʻulomovning ushbu fikrlarini kengroq va batafsil yoritib berdi⁴.

Fonostilistikani muloqotning turli soha va holatlarida fonetik hodisalarning uslubiy vazifalari, ahamiyati haqidagi qonuniyatlarni oʻrganuvchi fan sifatida tushunish uni ijtimoiy lingvistikaning tashkiliy qismiga aylantiradi. Nutqning turli uslubiy koʻrinishlarining fonetik shakllanishi tadqiqot uchun muhim masaladir.

Hozirga qadar fonostilistikaga doir tadqiqot ishlari juda kam. Ishlar fonetika, stilistika, ijtimoiy tilshunoslik pozitsiyalaridan turib tadqiq etilgan. Ularda maʼlum bir tovushiy birlikning nutqiy jarayonda, turli holat va vaziyatlarda yuzaga chiqishida asosiy boʻlgan 2-3 ta ekstralingvistik omillar sanab oʻtilgan. SHu bilan birga ular tasviriy, tavsifiy-taʼkidiy xulosalar bilan cheklanib qolgan, xolos.

Mavjud ilmiy materiallarga asoslanib shuni aytish mumkinki, oʻzbek tilining fonetik stilistikasini alohida boʻlim sifatida oʻrganish lozim, chunki nutqning fonostilistik tabiatini oʻrganish talabalarga ular tomonidan oʻrganilayotgan ogʻzaki va yozma matnlarni yanada yaxshiroq uqishga va bir qancha amaliy masalalarni hal qilishga, yaʼni lingvistik qarashlarning shakllanishiga yordam beradi.

Oʻzbek tilshunosligida fonostilistik vositalarni keng koʻlamda oʻrganish savodxonlikni oshirishning eng muhim shartlaridan biridir.

³ Абдурахмонов Ф., Рустамов Х. Она тили. 10-11синфлар учун дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1995. 106 б.

⁴ Қиличев Э.Р. Ўзбек тилининг практик стилистикаси // Педагогика институтлари филология факультетлари студентлари учун ўқув қўлланма. -Т.: Фан, 1980. - Б. 88-101.

Fonostilistikaga oid masalalar tarixi tilning to‘g‘ri me‘yorlari, yaxshi uslub me‘yorlari haqidagi olimlar ta‘limotiga borib taqaladi. Qadimgi YUnon va qadimgi Rimda chiroyli so‘zlash va notiqlik san‘ati, nutqning ifodali vositalari haqidagi fan boshqa fanlar orasida asosiy yutuqlarga erishdi. Chunki ular uqtirishning, tushuntirishning asosiy vositalari deb qaraldi.

«Ritorikaning vazifasi u yoki bu fikrlarni uyg‘otishdir».⁵

Til – insoniyat va uning madaniyati, tarixi haqidagi daliliy hujjat. U – millatning beqiyos davlati. Til – millat tirikligi. Til orqali bilim, ilm, tajriba, madaniyat, uquv va malaka belgilanadi. Tilga e‘tibor – elga e‘tibor. Chunki inson hayotidagi yaxshi amallar, hurmat-e‘tibor, ro‘shnolik, baraka til tufayli amalga oshadi. Buning aksi ham til tufayli sodir bo‘ladi.

Tilni, xususan, ona tilini va uning tarixini puxta o‘rganish, ilmiy asoslab berish – davr talabi. Negaki ta‘limiy va tarbiyaviy muammolar echimi shu talablar negizida o‘z aksini topadi.

Matn (nutq)ning pishiq, uslubiy ravon, hissiy bo‘lishida fonetik vositalarning xizmati katta.

Tilda sodir bo‘ladigan ko‘plab hodisalar, ayniqsa stilistik hodisalar uzluksiz harakatda, o‘zgaruvchan ekanligini nazarda tutgan holda har safar ular to‘g‘risida aniq hukm chiqarish lozim. Chunki til, ayniqsa, uning lug‘aviy boyligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir xil hayot tarzida qolmaydigan xalqning ideallari va maqsadlari, ijtimoiy turmushi bilan chambarchas bog‘liq.

So‘z bir vaqtning o‘zida ham ijtimoiy, ham lisoniy tabiatga ega bo‘lgan turmushning ko‘plab qatlamlariga singib ketadi. Bizning

⁵ Античные теории языка и стиля. - М.- Л.: Госиздат, 1936. - 274 с.

davrda ijtimoiy ongning hissiy baholash imkoniyati yanada ortib, keskinlashib bormoqda. Oqibatda soʻzlar yangi baholash vazifalariga ega boʻlmoqda. Bu barqarorlashgan fonetik uslubiy vositalar tizimini harakatga keltiradi, tilning ekspressiv imkoniyatlari esa turli-tuman uslubiy innovatsiyalar bilan boyib boradi.

Tilning nutqiy uslubiy sathida fonetik vositalar soʻz, soʻz birikmasi, gapning borliqqa qaratilgan lisoniy, aqliy, hissiy yoʻnalishlarining oʻzaro kesishish joyida yangi nuqta hosil qiladi.

Tasviriy sanʼatda eng asosiysi rang, chiziqlar, kolorit va boshqalar boʻlsa, tilshunoslikda fonetik uslubiy material vazifasini matn (nutq)ning umumiy ekspressivligi, xususan, ilqlik/sovuqlik, shavqsizlik/shavqlilik, istehzoli, kinoyali, hazil-mutoyibali, shoʻx/mungli, xazinli, sodda, toʻgʻri/koʻchma, tabiiy/soxta va boshqa sifatlari bajaradi.

Badiiy asarlarning mazmunan rang-barang boʻlishiga erishish poetik sanʼatlardan turli vositalar sifatida mohirona foydalanishni talab etadi. Badiiy-poetik sanʼatlarning koʻngildagidek yoritilmaganligining sababi fonetik vositalarning fonetik-uslubiy yoʻnalishda tahlil etilmaganligidadir. Oʻzbek tilshunosligida badiiy sanʼatlar, ularning yaratilish sabablari, hosil boʻlishi, vazifa va ahamiyatini yorqinroq koʻrsatib berishda soʻz sanʼatining oʻrni, aynan shu soʻzning sanʼat darajasiga koʻtarilishiga muhim hissasini qoʻshgan fonetik vositalar fonetik-uslubiy jihatdan toʻla tadqiq etilmagan. Zero har bir badiiy asar alohida-alohida tadqiqot manbaidir. Ularning yozilish uslubi fonetik vositalarning maxsus grafik shaklda oʻziga xos xususiyatlar bilan berilishini amaliy koʻrsatib beradi. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, har bir badiiy asar maxsus oʻrganilsa, adibning

mahorati to'la va atroflicha ochiladi. Badiiy asar tahliliga bunday yodoshishning amaliy natijasi savodxonlikning oshishida ko'rinadi.

Fonetik vositalarning yana bir jihat – mavhumiyligi diqqatni jalb etadi.

Fonetik vositalardagi mavhumiylik ularning ko'p ma'noliligini, variantlarga ega ekanligini, xohlagan muloqotli vaziyatda qo'llanilishi mumkinligini shart qilib qo'yadi. Bu esa so'zlovchiga katta sharoit yaratib beradi, ya'ni so'z va konstruksiyalarni tanlash jarayonida ijodiy faolligini namoyon qilishida va har doim, har safar so'z va konstruksiyalarni yangicha qo'llashga imkon beradi.

Fonetik vositalar umumxalq tiliga asoslanadi. Ularning uslublarda ro'yo bo'lishi matn (nutq)ning mazmunini ro'yobga chiqaradi. Bularning hammasi matniy (nutqiy) xulqni muvofiqlashtirishda asosiy omil sanaladi.

Inson fonetik vositalar yordamida o'z nutqiy faoliyatida obrazlar, xarakterlar, tiplarni yaratadi. Eng qizig'i shundaki, inson fonetik vositalarni vazifasiga ko'ra xohlagan uslubga bo'ysundira oladi. SHuning uchun inson nutqidagi asosiy material bo'lmish so'z bilan bab-baravar holda fonetik vositalar ham muhim hisoblanadi. Ushbu fonetik vositalarni bemalol inson nutqining libosi desak ham xato qilmaymiz. CHunki fonetik vositalar, ulardagi xalqchilik ruhi inson xarakterini, ruhiy holatini ochib beradi.

Inson o'zi yaratgan fonetik vositalar va ularda shakllangan informatsiya bir vaqtning o'zida ijtimoiy muhim va madaniy informatsiya tashuvchisiga aylanadi. Bu jihatdan til hissiy-tasviriy yoki ramziy shaklga ega bo'ladi. Til bunda og'zaki shakl – kommunikativlik xossasini oladi. Kommunikativlik – ijtimoiy muloqot

– fonostilistikani tashkil etadi. Nutqiy muloqotda fonetik vositalarni qo‘llash jarayoni kommunikantlarning o‘zlarini anglab olishi, birlarini o‘zaro yaqinroq bilib olishlariga, maqsadlari, faoliyatlarini dadillashtiruvchi sabablarni aniqlab, belgilab olishlarida va ularning psixologik farqlarini belgilab olishlarida qulaylik tug‘diradi. Aytilgan fikrlarni chuqur tushunishni engillashtirish (ma‘ruzachining nutqi, ommalashtirish) xuddi shunday qo‘shimcha maqsadlar hisoblanadi.

Qo‘shimcha maqsadlar fonetik vositalarning bevosita va bilvosita qo‘llanilishiga imkon yaratadi. Fonetik vositalar inson qobiliyati, malakasi, tajribasi va mahorati yordamida ro‘yobga chiqadi. Ular o‘ziga xos sistemani hosil qiladi. Bu sistema inson, uning ehtiyojlari va tasavvurlari, taassurotlari va dunyoqarashi negizida harakat qiladi, ya‘ni inson o‘z nutqining rang-barang bo‘lishi uchun turli fonetik vositalardan turli uslublarda mohirona foydalanadi. Bu esa nutqning u xoh yozma, xoh og‘zaki bo‘lsin, mazmunan pishiq, uslubiy ravon, shaklan hissiy bo‘lishida juda ahamiyatlidir.

Til jamiyatning ijtimoiy boyligidir. Jamiyat tilni doimo takomillashtirish, yanada boyitishdan moddiy manfaatdor. U bunga muhim va jiddiy ehtiyoj sezadi. Muloqot jarayonida odamlar yangi ma‘lumotlar bazasiga ega bo‘ladilar. Bu odamlarning aql-idroki, fahm-farosati, aql-zakovati va ma‘naviy axloqini takomillashtiradi. Muloqot jarayonida olingan, to‘plangan bilimlar insonlar xulqini, fe‘l-atvorini boshqarishga yordam beradi. Aynan shu o‘rinda nutqning yuzaga kelishi, takomillashuvi, maqbulligi nutqning fonetik uslubiy vositalarga boy ekanligiga ham bog‘liq. Fonetik uslubiy vositalar (fonetik ramz, fonetik ma‘nodorlik, fonetik vositalar, prosodik vositalar va boshqalar) nutq boyligida o‘ziga xos qatlamni tashkil

etadi. Nutqning kommunikativlik xususiyati tilning turli uslublarida, turli darajalari va uning o'ziga xos qatlamlarida (fonetik, lug'aviy, semantik, sintaktik va boshqalar) turlicha shakllangan.

Tilning fonetik uslubi nutq boyligini boyituvchi yoki zaiflashtiruvchi iste'mol muhitini hosil qiladi. SHu bilan birga tilning fonetik uslublari ham bevosita kommunikativ xususiyatga ko'proq ega ekanligi va uzviy bog'liqligi bilan tilda namoyon bo'ladi.

Til boyligi ma'lum me'yor va ma'lum munosabatlarda uslublarni farqlovchi va uslub hosil qiluvchi xususiyatga aylanib qolmoqda. Uslublarni hosil qilish va farqlashda ishtirok etuvchi fonetik uslubiy vositalarga e'tiborni kuchaytirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Keyingi davrda o'zbek tilshunosligida fonetik vositalarning nutqda va hatto yozuvdagi stilistik xususiyatlariga doir qator ishlar yuzaga keldi⁶.

Fonetik vositalar haqida ma'lumotlar ko'p. Ammo ularning kam yoritilgan tomonlaridan biri fonetik-uslubiyat yo'nalishida tahlil qilinishidir.

O'zbek tilshunosligida fonetik-stilistik vositalar, ularning hosil bo'lish omillari, qo'llanishi, ahamiyati kabi masalalar uslubiy jihatdan to'la tadqiq etilmagan. Hozirgi zamon tilshunosligining yutuqlari fonostilistika sohasidagi ishlarni fonosemantika bilan bog'lab kengroq o'rganishni taqozo etadi.

Biz borliqda mavjud bo'lgan predmetlar nomlariga gohida e'tibor berib o'ylab qolamiz, gohida esa aksincha. Agar diqqat bilan ularning nomlanishi, yozilishi va aytilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, oddiy

⁶ Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1985. –2-сон. –Б. 24-28; Шарафуддинов Ҳ. Поэтик фонетика // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1978. –2-сон. –Б. 53-55; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол.фанлари номзоди ... дис. –Т., 1996. –132 б.

lisoniy haqiqatga duch kelamiz. Bu qanday haqiqat?

Tilimizdagi barcha soʻzlar maʼlum bir maʼnoga ega. Maʼno faqatgina soʻzlarning oʻzida emas, balki ular tarkibidagi tovushlarda, ularning talaffuzida ham zohir boʻladi. Undov va taqlid soʻzlardagi tovushlarning ohangdorligi maʼlum mazmun va maqsadga ega. Til uchun bunday holatlar tasodifiy hodisa emas. Undov va taqlid soʻzlarning aytilishi orqali ulardagi mazmun va maqsadni qiyinchiliksiz anglab olamiz. Demak, soʻz tarkibidagi tovushlarda ham qandaydir maʼno va maqsad yotadi. Albatta, tovushlarning maʼnodorlik xususiyatlarini kengroq yoritish, tadqiq etish ham murakkab, ham qiziqarlidir.

Soʻzning fonetik maʼnosi uning boshqa (grammatik, lugʻaviy, tushunchaviy) maʼnolaridan keskin farq qiladi. Soʻzning grammatik, lugʻaviy, tushunchaviy maʼnolarini izohlab, tahlil qila olamiz. Biroq uning fonetik maʼnosi anʼanaviy tahlil uslublariga boʻysunmaydi. SHunday boʻlsa-da, fonetik maʼnoni boshqa maʼnolarga qiyoslash mumkin ekan. Bunday vaziyatda belgi-xususiyatga oid maʼno aspekti yordam beradi. Masalan, yosh bolalarni «doʻmbogʻim, qoʻzichogʻim, munchogʻim va b» deb erkalatishlarda belgi-xususiyatga oid maʼno ustun turadi. CHunki bolaning oʻzi emas, balki uning qandayligi muhim ahamiyatga ega. Undov va taqlid soʻzlardagina talaffuzning maʼnoga nisbatan taʼsiri kuchli ekanligi yaqqol seziladi.

Bizningcha, endi fonostilistik tadqiqotlar tovushlar takrori, assimilyasiyasi, choʻziq-qisqaligi kabilar bilan chegaralanib qolmay, ulardagi aynan shu jihatga yoʻnaltirilishi lozimki, oʻzbek tilshunosligida eʼtibordan chetda qolib kelayotgan bu xil tadqiqotlar jahon tilshunosligida anchagina boʻlib «fonosemantika» deb ataluvchi

yoʻnalishga birikadi.

Tilning atash, aloqa qilish vazifasi oʻzbek tilshunoslari tomonidan keng oʻrganilgan, ammo uning kishi ruhiga taʼsir qiluvchi emotsional-ekspressiv taʼsirchanlik tomoni, yaʼni uslubiy jihatini oʻrganish etarli emas. Garchi tilning hissiy taʼsirchanlik qirrasini oʻrganishga oʻtgan asrning 60-yillaridan kirishilgan boʻlsa ham, bu tadqiqotlarning koʻpchiligi leksik, qisman grammatik vositalarning stilistik qoʻllanishini oʻrganishga bagʻishlangan edi. Xuddi shu yoʻsindagi tadqiqotlar hozir ham olib borilmoqda va bu borada jiddiy ilmiy-amaliy xulosalar chiqarilmoqda. Ammo til fonetik vositalari uslubiy xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha birgina nomzodlik dissertatsiyasi va sanoqli ilmiy maqolalar yozilgan, xolos. Holbuki, fonostilistikaning tadqiqot doirasi nihoyatda keng boʻlib, bu sohada jiddiy kuzatishlar olib borish oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Evropa va rus tilshunosligida fonostilistika muammolari atroflicha oʻrganilgan. Hatto fonetik va grafik stilistika alohida-alohida sarlavhalar ostida tadqiq etilgan. Nutqda tovushlarning talaffuzi va prosodiyasi bilan bogʻliq uslubiy xususiyatlar ham bayon qilingan.

Oʻzbek tilshunosligida fonostilistik vositalar va ularning nutqda qoʻllanishi haqidagi fikrlar dastlab professor A.Gulomov tomonidan aytilgan. Fonostilistik vositalar koʻproq badiiy nutqda ritm, qofiya, radif, ohang uchun qoʻllanishi akademik Gʻ.Abdurahmonov tomonidan alohida qayd etilgan.

Oʻzbek tili fonostilistik vositalarining oʻrganilish tarixi, hozirgi holati, vazifalari va bu sohada chuqur shlanishlar olib borish haqida

professor A.Abduazyuov kimmatli fikr bayon qilgan . Xuddi shuningdek, fonetik vositalarning uslubiy imkoniyatlari haqida ayrim monografiya va darsliklarda SH.SHoabdurahmonov , X.Doniyorov , E.Qilichev , va boshqa tilshunoslar bayon qilgan fikrlar ham diqqatga sazavordir.

Fonetik stilistikaning grafik stilistika bilan kesishgan nuqtasida hosil bo'lgan fonografik stilistika haqidagi mulohazalar G.T.YAxshievaning nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha tadqiq qilingan . Ushbu tadqiqotda, asosan, yozma nutqdagi grafik uslubiy vositalarning stilistik xususiyatlari bayon qilingan.

1.2. Fonostilistikaning tekshirish ob'ekti

Fonostilistikaning tekshirish ob'ekti nihoyatda keng bo'lib, grafik stilistika bilan ham, fonografik stilistika bilan ham aloqador. Fonostilistikada nafaqat segment yoki supersegment (intonatsiya, pauza, urg'u) vositalarning ekspressiv xususiyatlari, balki ekspressiv nutqning talaffuz xususiyatlari ham o'rganiladi.

Til fikr anglatish quroli bo'lishi birga, insonlarga hissiy ta'sir kilish vositasi hamdir. Bu ta'sir so'zlardagi asosiy (denotativ) ma'noga asoslangan qo'shimcha (konnotativ) ma'nolar vositasida amalga oshadi. Konnotativ ma'no komponentlarini tashkil qiluvchi "bo'yoqlar" fonetik vositalarda ham kuchli ifodalanadi. Bular:

1) nutq tovushlari talaffuzi bilan bog'liq ekspressivlikning aks etishi; so'zlarning tovush qiyofasini o'zgartib aygish, so'zlarda tovush orttirish yoki tushirish, alliteratsiya orqali xayajon ifodalash va hokazo;

2) baho komponenti-so'zda tasdiq yoki inkorni intonatsiya orqali

ifodalash;

3) soʻzda belgi (miqdor) darajasining kuchliligini bildiruvchi tovush choʻziqligi;

4) soʻzlovchining shaxs va xodisalarga nisbatan turlicha munosabatini ifodalovchi pragmatik maʼno, yaʼni geminatsiya yoki pauzalar orqali

5) nutqning vazifaviy uslublari bilan bogʻliq qoʻshimcha maʼno komponenta va boshqalar. Bu komponentlar bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan holda ish koʻradi.

Til (nutq)da ikki xil konnotatsiya mavjud: ingerent va adgerent. Fonetik eietemada ingerent konnotatsiya, asosan, taqlid soʻzlarda uchraydi: Taq-taq; toʻq-toʻq soʻzlarida hissiy yoqimsizlik, tiq-tiq, tik-tik soʻzlarida hissiy yumshoqlik boʻyogʻi ifodalanadi.

Badiiy adabiyotda fonetik jihatdan, asosan, adgerent konnotatsiya mavjud boʻlib, u badiiy nutqning muhim tasviriy vositasi hisoblanadi. CHunki istalgan soʻzning nutqdagi meʼyordan tashqari turlicha talaffuzi uni hissiy taʼsirchan qiladi.

Nutqda soʻzlardagi konnotativ maʼnoni roʻyobga chiqishida nutq tovushlarining paradigmatic va sintagmatik munosabatlarga kirishishi jarayoni alohida ahamiyat kasb etishi, shuningdek, talaffuz stillari bilan bir qatorda tovush simvolizm i yoki tovushlarning poetik vazifasi haqida ishimizda batafsil fikr yuritilgan.

II BOB. Nutq tovushlarining stilistik xususiyatlari

2.1. Tovushiy ramzga doir mulohazalar

Ramziylik hodisalarning ikki – kishi ko‘zi ko‘radigan va ko‘rmaydigan turlarining ifodaviy qiyosidir. Hodisaning bu har ikkala turi o‘zaro yaxlit birlikni tashkil qiladi. Biroq bu birlikni matn (nutq)dagi oddiy so‘zlar (belgilar) orqali shunchaki ifodalab yoritib berish mumkin emas. Ramziylik nomoddiy holatlarni anglab etishga

imkon beradi.

Inson soʻzlashar ekan, oʻz tiliga har doim ham uncha muhim va ahamiyatli boʻlmagan xususiy oʻzinikini olib kiradi. Negaki har bir inson oʻz soʻzlashuv odatiga, oʻz yoqtirgan soʻzlariga, soʻzlashuv iboralariga va soʻzlashuv uslubiga ega. Muloqot jarayonida inson tilning yashirin donoligiga guvoh boʻlib boraveradi. Inson ongi va ruhiyati uning gavda qurilishi, husn-tarovati bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlanmaydi. SHu bilan birga mallalarning qiziqqon, peshonasi kenglarining mushohadali, labi yupqalarning asabiy ekanligi va h.k. haqidagi fikrlarning ham asossiz keng tarqalgan deb boʻlmaydi. Albatta, bu xil mutanosiblik, deylik, qattiq jismlardagi shu tip bogʻliqliklarga nisbatan noizchil.

SHundan kelib chiqib, ikkilamchi moddiy sistemalarda bunday mutanosiblikni topish juda qiyinligi ravshan. SHu jumladan, tilda ham lingvistik belgining muhim xususiyatlaridan biri uning shartliligidir. Modomiki, obʻekt va uning belgilovchisi oʻrtasida tabiiy bogʻliqlik yoʻq ekan, ularning nomutanosibligi shubhasizdek. Ammo koʻp asrlardan beri davom etib, tilshunoslarni analogistlar va anomalistlar deb atalgan ikki yirik guruhga ajratib kelayotgan tortishuvda har ikki tomon ham oʻz nuqtai nazarini himoya qilish uchun muayyan asoslarga ega.

Tilshunoslik tarixida goh u, goh bu oqim etakchilik qilib kelgan davrlarni ajratish mumkin. Zamonaviy tilshunoslik maʼno va uning tovush qobigʻi orasida qonuniy bogʻliqlik yoʻqligining keng tan olinishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, V.I.Koduxov yozadi: «Soʻzning lugʻaviy maʼnosi uning tovush tarkibi bilan aniqlanmaydi va motivatsiya qilinmaydi. Nutq tovushlari oʻzlari erkin holatda hech

nimani anglatmaydi. Soʻzning tovush shakli bilan uning maʼnosi oʻrtasidagi bogʻliqlik til anʼanalariga koʻra oʻzaro yaqinlik assotsiatsiyasi hisoblanadi»⁷.

Tilshunoslik tarixida esa aksincha qarashlar ham oz emas. Jumladan, Aflotunning fikriga koʻra, predmet haqidagi tasavvur va uning ifodalovchisi oʻrtasida muvofiqlik bor.

CHunonchi, *r* har qanday harakatni, uzilishni bildiradigan vosita hisoblanadi. Masalan:

<i>rei</i>	- <i>reka</i>	- <i>daryo</i>
<i>roe</i>	- <i>stremnina</i>	- <i>daryoning tez</i>
<i>oqar joyi</i>		
<i>tromos</i>	- <i>trepet</i>	- <i>titroq, titrash</i>
<i>trechein</i>	- <i>probegat</i>	- <i>yugurmoq</i>
<i>croyein</i>	- <i>drobit</i>	- <i>parchalamoq</i>
<i>tragein</i>	- <i>krushit</i>	- <i>emirmoq, qirmoq</i>
<i>treikein</i>	- <i>rvat</i>	- <i>yirtmoq</i>
<i>thryptein</i>	- <i>ryt</i>	- <i>qazimoq,</i>
<i>kovlashtirmoq</i>		
<i>rembein</i>	- <i>vertet</i>	- <i>aylantirmoq, buramoq,</i>
		<i>pirillatmoq,</i>
<i>gʻildiratmoq.</i>		

Dionisiy Galikarnasskiy, Avgustin, Lomonosov, Leybnitslar ham shunga yaqin fikr bildirib, isbot tariqasida ayrim tovushlarning semantik uygʻun soʻzlar tarkibidagi oʻrniga doir qator xarakterli misollar keltirib oʻtganlar⁸.

⁷ Қаранг: Журавлёв А.П. Фонетическое значение. - Л.: Ленингр. ун-т, 1974. -16 –17 с.

⁸ Журавлёв А.П. Фонетическое значение. -С. 16 –17.

Hozirgi rus tilshunosligida A.P.Juravlyov, L.O.Reznikov, A.G.Spirkin⁹ kabilarning xizmati bilan tovush qobig'idagi motivlanishni o'rganuvchi fonosemantika mustaqil yo'nalishga aylandi. O'zbek tilshunosligida fonologik vositalarning stilistik imkoniyatlari masalasi o'rganilayotgan bo'lsa-da¹⁰, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan fonosemantika borasida alohida tadqiqotlar olib borilgani ma'lum emas. Til tashuvchisi nuqtai nazaridan qaraganda, tovushlarning muayyan semantik- uslubiy tusga ega ekanligi u qadar shubhali emas. O'zbek tilini nozik his qilgan alloma shoir M.SHayxzodaning ushbu satrlari fikrimiz dalili bo'la oladi:

*Tovushlarning kichik-ulug'i,
Tovushlarning hidi, bo'yi bor,
Tovushlarning sovuq, ilig'i,
Tovushlarning rangi-ro'yi bor.
Tovushlarning shirin-achchig'i,.
Bordir hatto yumshoq, qattig'i,
SHoir rassom bo'lsaydi agar,
CHizar edi shunday lavhalar.*

O'zbek tili tovushlarining ayrimlari ustidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda qandaydir motivlanish borligini ko'rsatadi. YUqoridagi Aflotun ko'rsatib o'tgan so'zlarning o'zbekcha variantida ham ko'rinib turibdiki, bizning o'zbekcha *r* tovushimiz ham qandaydir tez, titroq, shiddatli, zo'r, keskin harakatni ifodalar ekan. YAna misol tariqasida quyidagi so'zlarni keltirish mumkinki, ularda ham *r*

⁹ Резников Л.О. Гносеологические вопросы семантики. - Л., 1964. -С. 345; Спиркин А.Г. Происхождение языка и его роль в формировании мышления // Мышление и язык. - М., 1957. - С. 372.

¹⁰ Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. - Т., 1985. -Б. 88 – 93 .

tovushining semantik xoslanishi ma'lum darajada sezilib turadi: *abjir, ayirmoq, ayqirmoq, aksirmoq, artmoq, ag'darmoq, baqirmoq, baqraymoq, birdan, biqirlamoq, burilish, bo'kirmoq, bo'ron, varrak, gulduros, gursillamoq, yomg'ir, pirpirak, urmoq, hurrak, chigirtka, shartta, sharshara, sharros, qirg'in, qirg'ich, g'ildirak, hurkak va h.k.*

j tovushi jajji, bejirim, ixcham, yoqimli, o tovushi esa dumaloq predmetlar nomida uchrar ekan. Masalan: *jinday, jajji, jimjiloq, jinqarcha, jikkak, jibljibon, jilg'a, jimjima, jichcha, jig'ildon, jo'va.*

Oy, bosh, tovoq, nos, noxot (so'zlashuv tilida), sopqon, ko'z soqqasi, soqqa (zo'ldir shar), yong'oq, tomchi, xol, qozon, koptok, qorin.

Albatta, bu fikrlar ko'plab tajriba va qiyoslarni talab qiladi (quyidagi bo'limlarda bunga batafsil to'xtalamiz). Bu o'rinda hech qanday absolyutizmga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Muayyan semantik tus uchun xoslangan deb hisoblangan tovush aksincha tus etakchilik qiluvchi so'zlarda ham uchrashi mumkin. Masalan, *jar, jahon* so'zlaridagi *j* tovushiga e'tibor bering. Aftidan, fonetik qurilmada qaysi tovushning etakchilik qilishi masalasiga alohida diqqat qilish lozim. Bu esa ayni til xususiyatlari, pozitsiya va qo'shnichilik munosabatlari bilan chambarchas bog'liq.

Leksema ham o'zida muhim birlikni – so'zning mazmun va tovush shakli bir butun birlik ekanligini namoyon qiladi. SHuning uchun leksemani ko'pincha belgi, ya'ni talaffuz va mazmun birligi deb qabul qiladilar. SHakl predmetning mavjudlik belgisi, mazmunning elementlarini yaxlitlovchi narsadir. Predmetning borliqda mavjudligi, nima ekanligi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari uning shakli orqali ko'rinadi. Tilshunoslikda mazmunni ramz orqali ifodalash yoki berish

nazariyasi antik davrlardan buyon soʻz sanʼati muammolari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib kelgan (poetik sanʼat).

Belgi oʻzi nima, degan savolning tugʻilishi tabiiy. Belgi obʼektiv mavjud boʻlgan narsadir. Biroq uning qabul qilinishida bevositalilik emas, bilvositalilik etakchi boʻladi. U shundayligicha emas kengroq va umumiy tarzda tushuniladi, idrok etiladi. Ammo unda oʻzining obʼektiv xususiyatlari ham qay darajadadir aks etadi.

Ushbu fikrdan kelib chiqib, ramzda mavjud boʻlgan ikki xususiyat ajratib olinadi, yaʼni undagi mazmun va oʻsha mazmunning ifodasi. Ramz – bu belgi. V.Gumboldt bu hodisaga ramz va belgini farqlovchi «semiotik tamoyil» nuqtai nazari bilan qaraydi. Ramziylik falsafasini rivojlantirishda asosiy oʻrin V.Gumboldtga tegishli. Bolalikning birinchi yillaridanoq inson maʼlum bir soʻzlar zahirasi oʻrgana boshlaydi. Bola yoshi ulgʻaygan sari bevosita yodlab olingan soʻzlarga, ularning eshitilishi va talaffuziga eʼtibor qilishi natijasida soʻzlarning maʼnosiz tovushlar qatori emasligini tushuna boradi.


Soʻz bolaning tafakkuri va ongida oʻz mazmuniga mos tusha boshlaydi, yaʼni u gapirayotgan va talaffuz qilayotgan soʻzlar u koʻrayotgan predmet va hodisalarning ramzi sifatida shakllana boshlaydi. Bu davr bolaning lugʻat zahirasi keskin boyiydigan paytga (1,5-2 yoshdan) toʻgʻri keladi (300-400 tagacha soʻz). Uch yoshdan boshlab bola 1000 dan ortiq soʻzlarni bilishi bilan birga bemalol oʻziga yarasha jumlar qura oladi. Demak, til – belgilar tizimi koʻrinishidagi bilimlarning mavjudlik shakli ekanligiga shubha yoʻq. Bola yakka predmet va hodisalarni anglashi bilan bir qatorda ularning umumiy jihatlari, shakli va tushunchalarni uqa boshlaydi. Ikki yoshli bola uchun, endi u eshitayotgan va talaffuz qilayotgan soʻz maʼnosiz

tovushlar yig'indisi bo'la olmaydi. So'z bola hayotida tobora ma'lum bir ma'noga ega bo'la boshlaydi, ya'ni borliqda mavjud predmet yoki hodisaning ramziga aylanadi. So'zlarning ahamiyatlilik va qo'llanish darajasini bola g'oya va tovushlar o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'laydi.

Nom – bu buyum, odamni atash uchun qo'llaniladigan so'z yoki ba'zan bo'lsa ham so'z birikmasidir. Nomning o'zi emas, balki nomlanish, atalish bilan bog'liq jarayon va munosabat – nomlanish jarayoni tilning xususiy muammolaridan biri sanaladi. Nom doim odamlar uchun tilsim bo'lib kelgan.

Semiologiya nuqtai nazaridan olib qaralganda, tarixan nomlarning qo'yilishi odamlar ismi qo'yilishi jarayoni bilan o'xshash ekan. Insonga ism uning oilasisiz, ijtimoiy an'anasiz berilmaydi. Inson ismi nomlanish turlaridan biri bo'lib, shak-shubhasiz, individuallikka, ya'ni oila, nasl va an'anaga ishora qiladi. Bu ajoyib qonuniyatni o'zbek xalqi ajoyib va chiroyli naql bilan ifoda etadi: «Ismi jismiga monand». Chunki ismlar odamlarga qandaydir o'lmas g'oyani singdiradi, ismlar har bir nasl, oilalarda ularning mavjudligini, davom ettirishga bo'lgan xohishini uyg'otadi.

Nomlanish jarayonini quyidagi kichik sxemada chiroyli va tushunarli qilib berish mumkin.



Bu aloqa ifodalanmish tushunchasini soʻz bilan ifodalash deyiladi.

Buyum soʻzi ostida biz nafaqat jonsiz predmet, odam, balki, umuman narsani tushunamiz.

Soʻz va tushuncha uygʻunligi nomlovchi soʻzlarga xos. Bunday soʻzlar lugʻatda markaziy oʻrinni egallaydi. Ismlar nomlovchi soʻzlarning oʻziga xos toifasini tashkil etadi. Baʼzan ismlar hech qanday lugʻaviy maʼnoni anglatmaydi, deyuvchi qarash keng tarqalgan. Ularning bunday fikrga kelishiga ayrim sabablar mavjud. Ammo baribir ismlarni nomlovchi soʻzlar qatoriga kiritish imkoni ham mavjud. Hech boʻlmasa, ayrimlarini.

Tohir yoki *Murod* ismlari oʻzlari atayotgan odamlar haqida maʼlumot bermaydi. Ushbu ismlarning tovushiy shakliga qarab, ular nomlagan odamning qaysi millatga mansubligini, u yashab oʻsgan ijtimoiy muhitni, biror jinsga mansubligini bilib olishimiz mumkin.

Biroq ayrim ismlar umumiy belgilaridan tashqari oʻz ichida bir qator individual xususiyatlarga ham ishora qiladi, yaʼni ular xohlagan jinsdosh ismlardan ustun kelgan holatda jinsdoshlik maʼnosini oʻta yuqori darajada aktuallashtirish imkoniga ega.

Inson soʻzlarni chuqur tushungan holda, ularning tashqi belgilari – talaffuziga (shakli) eʼtibor beradi. Soʻzning tovushiy ramzi orqali uning lisoniy maqomini, oʻziga xos lisoniy, uslubiy xususiyatlarini belgilashi mumkin. TR maʼlum assotsiatsiyalarni hosil qiladi va ayrim affektlarni ham ifodalaydi.

Soʻzning tashqi tovush tomoni uning ichki maʼno tomoni bilan uzviy bogʻliq. Ramziylikdagi eng kichik munozarali hodisa ham

tilning TR faktlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Vinogradovning fikricha, «Til sistemasida nutq tovushlari ham ma’nodor, uqilgan bo‘ladi», «so‘zning tovush shakli turli ma’no ottenkalarining manbai hisoblanadi».¹¹ Ko‘rinib turibdiki, V.Vinogradov ham ma’nodor shaklni rad etmaydi. Ma’no turli hodisalar yordamida motivatsiyalashadi. Masalan:

Tovushga taqlid orqali: *SHoldirama*

Ohangdorlik: *Gurkirov*

Unlilarning uzun-qisqaligi: *beli juda ingi:chka ekan; bala:nd imorat.*

Bir otim bor aji:bgina,

Dumlari gajjakkina.

Hali kelsa ko‘rasiz,

Kula-kula o‘lasiz.

Undoshlarning qo‘shaloq qo‘llanilishi: *yashshavor azamat!*
Judda zo‘r! Daraxtning uchchida! Tomning naq teppasida!

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,

Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.

SHunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,

SHunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonimga payvast,

Men sevgining bo‘yi bilan mast.

Kuni bilan dalada qoldim,

Lolazorlar ichra yo‘qoldim.

¹¹ В.Виноградов. Русский Язык. Грамматическое учение о слове. - М.: Высшая школа, 1972. -614 с.

*Quchoq-quchoq gullar terganim,
Va keltirib senga berganim,
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda..
SHundan beri esimda oting,
SHundan beri dilimda oting.
Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.*

SHe'rda did bilan tanlangan so'zlar, ulardagi cho'ziq unlilar va bir-biriga mos tushgan qo'shimchalar, *m, n, l, ng* sonorlarining qo'llanishi birinchi muhabbat manzarasini yanada jonli ifodalab, o'ziga xos ko'tarinki, quvnoq va engil kayfiyatni hosil qiladi. Sanab o'tilgan belgilar she'rning musiqiyligini oshiradi. SHe'rdagi chiroyli ohang, joziba, musiqiylik birgina so'z bilan emas, balki fonetik qobiq bilan ham ifodalanadi.

«Bizni o'rab turgan tashqi olamdagi mavjud turli-tuman predmet va hodisalar, ya'ni rasmlar va haykallar, gullar, ranglar, inson tanasining harakati, shu bilan bir qatorda inson nutq apparati yordamida hosil bo'ladigan tovushlar ham ramziy xususiyatlarga ega»¹².

TR – ifodalovchi va ifodalanmish o'rtasidagi noerkin aloqa munosabatidir. Bunday hodisa ramziylik (simvolizm) yoki fonetik ma'nodorlik (fonosemantika) deb nomlanadi. TR konnotativ semantikaga kiradimi? Umuman olganda ular til semantikasining komponenti bo'la oladimi? Zamonaviy psixolingvistik bilimlar pozitsiyasidan turib shuni aytish mumkinki, TR insonning nutqiy

¹² Левицкий В.В. Семантика и фонетика. –Черновцы, 1933. – 8 с.

ma'no faoliyatini tashkil etishda nutqni amalga oshirish, uni uqish jarayonida ishtirok etadi.

Individual tafakkurda soʻz ortida nima anglashilayotganligini chuqur va har tomonlama tahlil qilish mumkin. Bu soʻzning ideologʻat birligi sifatida adekvat tavsif qilishga yordam beradi. Faqat tilning lugʻaviy-semantik sistemasi miqyosida soʻzning qaysi turdagi aloqalarga mansub ekanligini koʻrib chiqish bilangina kifoyalanib qolmaslik kerak. Chunki bu erga TRni ham kiritish mumkin. Insondagi ehtiyoj va hissiyot, faollik va qiziqqonlik, bilish va baholash, zakovat va tafakkur, hissiy muloqotda boʻlayotgan soʻzlashuvchi-subʻektlarning hissiy muloqotidagi TRning oʻrni muammosi diqqatni oʻziga tortadi. TR tabiati va mohiyati boʻyicha bizga maʼlum tilshunoslik va ruhshunoslik maʼlumotlari qiyoslanganda bir-biriga quyidagicha mos tushadi:

1. TR universal tabiatga ega.
2. TR zamirida tovushlarning fizik xususiyatlari yotadi¹³.

Fonetik sistemaning sinxron va diaxron tarzda oʻzgarib turishi va u bilan birga TR ning ham mavjudligi ramz muammosining asosiy muammolaridan hisoblanadi. Ushbu mavjudlikning uch omili Levitskiy tomonidan keng yoritilib, ajratib berilgan¹⁴. TR hodisasi yakka tovushlarda emas, balki soʻzlar va butun bir gaplarda kuzatiladi. Misol tariqasida quyidagi sheʼriy matnlarni keltirish mumkin:

QUYUN

¹³ Левицкий В.В. Звуковой символизм в лингвистике и психолингвистике // Филологические науки. - 1975. - № 4. - С.54-61.

¹⁴ Кўрсатилган асар - С. 59-60, 54-61 .

*Orqalab chang-to 'zonni quyun,
Qilmishidan or etmay tentir.
Yig'ib xoru xasni yo'l kuyi
Sochar yuzu ko'zga keltirib.*

*Dalalarda shopirar na don,
Na haydar u kema elkanin.
Aylantirar na bir tegirmon,
Na bir yukni olar elkaga.*

*Goh osmonga o'rlab ketar u,
Borida xor-xashak chirpirak.
Boshin olib ketmay netar u -
Bir kimsaga bo'lmagach kerak! (E.Oxunova)*

SHe'rdagi *q*, *g'*, *x*, *ch* tovushlarining faolligi akustik tasavvurni paydo qiladi.

Tovushning fonetik ma'nosi so'zga ham singib ketadi. So'zning fonetik ma'nosi va semantikasi o'rtasida ichki dialektik aloqa vujudga keladi, ya'ni so'zning fonetik motivlangan semantikasi ommalashadi. So'zning tushunchaviy ma'nosi uning signifikati, referent va denotat o'rtasidagi o'zaro munosabatida ortiqcha bo'lishi mumkin. Bunda ular o'rnida so'zning akustik parametri qo'llaniladi. SHu tarzdagi mantiqiy tugal fikrga kelish fonetik ma'noning noto'g'ri metodologik ma'nosini oydinlashtiradi. So'z – gap, matnlarning TRi semantik stereotip assotsiatsiyalar sohasi bo'ladi. Mazkur soha psixolingvistikaning psixosemantika bo'limida asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida shakllanishi mumkin. TR semantikasi – fonetik ma'no so'zning konnotatsiyasi ham

emas, balki assotsiativ semantikaning o'ziga xos turi bo'lib, so'zlovchining uni o'rab turgan dunyoni milliy kelib chiqishiga asoslangan holda qabul qilishi demakdir.

O'zbek tilida shunday tovush birikmalari mavjudki, ular lug'aviy ma'noga ega emas, ammo inson tomonidan yo salbiy, yo ijobiy qabul qilinadi va shunga ko'ra nutqda qo'llanadi. Bunday tovush birikmalari deb alohida turdagi so'zlar nazarda tutildi. Insondagi ma'no, sezgi to'qimalari undagi tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va takomillashuvida faol ishtirok etadi¹⁵. Inson tafakkurining, aqlining, hissiy sezgi to'qimalariga TR ham tegishli. TR faqat lisoniy ma'nolar sohasiga oid bo'lgan hodisami? degan savol tug'ilishi tabiiy. Savolning o'zi TRning lisoniy maqomini oydinlashtiradi. Biz uchun munozarali tuyulgan bu savolga shunday javob berish mumkin. TR hodisasida tovush, so'z, gaplar, matnlar sub'ekt tasavvuri va tafakkurida muhrlangan aniq assotsiatsiyadir.

So'z – tovush qatori. Unga tegishli bo'lgan dunyo predmeti shu tovushlar qatorida ham mujassam. Tovush qatorining ma'nosi esa aynan predmetning ma'lum bir ma'noli sifati, vazifalari, xususiyatini ko'rsatib turuvchi qirralarida ramz ko'rinishida namoyon bo'ladi.

TR tilshunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Matezius ramziy ma'noni predmetning mohiyatiga bir qadar etishgan belgining bir qismi deb biladi. Unga poetik nutqning obrazlilikini ta'minlovchi manba deb qaraydi¹⁶.

«Timsol», «ramz», «so'z», «odat», «rasm-rusum» kabi

¹⁵ Кубрякова Е.С. Номинальный аспект речевой деятельности. - М.: Наука, 1986. –С. 55-69, 70.

¹⁶ Матеиус В. Язык и стиль // Пражский лингвистический кружок. - М., Наука, 1967. -С. 444 - 523, 456.

tushunchalar o'рни bilan dunyoviy predmetlar o'rnida qo'llanilib keladi. Ular va dunyoviy predmetlar o'rtasidagi nisbat fanda etarli darajada o'rganilmagan. Predmet va o'sha predmetning rangi, ya'ni maysa va uning yashil rangi bir tomondan bir rang va bir predmetni atasa, ikkinchi tomondan «yashil», «maysa» turli xildagi ramzlarga ega. Maysa va uning rangi referentlik hodisasiga (rang va shu rangdagi predmet) referentli deyiladi. SHunday referentlar o'rnini bosayotgan lisoniy vositalar ramzi esa boshqacha semantik asosga ega. SHunga ko'ra uni semantik ramz sifatida ko'rish mumkin. «YAshil» so'zining ramziy semantikasida nima birlamchi? «YAshil» rangi sotsium uchun ma'lum bir ramzlarga ega, biroq *ya sh i l* tovushlar qatorining o'zi ham ramziy tus oladi. Bunday ramziylik yasama va ikkilamchidir, chunki tilda o'sha yasama rangning o'rnini bosadi, ya'ni uni ifodalaydi. Boshqa so'zlar bilan birgalikda xuddi o'sha rangdek assotsiativ qatorlarni hosil qiladi. Bu uning ikkinchi signal sistemasi ekanligidan dalolat beradi.

Tilimizda yana so'zlovchi ismlar ham bor. Ular ham o'ziga xos ramziy semantikaga ega (*Don Juan, Afandi, Myunxauzen, Kumush, Zaynab, Zumrad, Qimmat* va h.k.). Negaki ular o'ziga turdosh bo'lgan ismning dastlabki mantiqiy ma'nosi bilan nominal (yasama) ma'nosi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga asoslanadi. So'zning ramzi singari hissiy nominatsiyaning shu turi semantika muammosini oydinlashtiradi. *Don Juan, Afandi, Myunxauzen, Kumush, Zaynab, Zumrad, Qimmat* kabi sanab o'tilgan inglizcha, nemischa, o'zbekcha ismlar o'zlarining shaxsiy madaniyatida milliy ramzlarga aylangan. Ushbu so'z ramzlardagi lug'aviy ma'nolardan ko'ra ular tarkibidagi tovushlar qatori ko'proq ma'noga ega. Ramziy ma'nolariga ko'ra

ko‘proq assotsiativdir. Lisoniy belgi va ramz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tilshunoslik sohasida hamon munozara shaklida va tilshunoslar tomonidan o‘z echimini kutmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkin ma’lum bir belgilar ma’nosi ramz ko‘rinishida va assotsiativ bo‘lishi mumkin. Boshqa belgilarga kelsak, ularning faqat ma’nosi assotsiativ bo‘lishi mumkin. Tilimizda uchraydigan to‘liqsiz ma’noli so‘zlar assotsiatsiyalanmagan ma’noga ega. Ommabop mafkuraviy leksikadagi so‘zlar assotsiatsiyalangan bo‘lib, ramziy ma’nolarga ham ega¹.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan tijorat grammatikasida ham keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda. Umumiste’molda bo‘lgan tovarlarning yorliqlariga e’tibor qilsak, reklama grammatikasi tovush ramzining ma’no to‘ri tamoyili asosida qurilganligiga ishonch hosil qilamiz. Mahsulotning nomida ko‘rkamlik, takrorlanmaslik, o‘ziga jalb qiluvchi ma’no, eng muhimi qiymat (baholash) ohangi sezilib turadi. Bularning hammasi mahsulotning attraktiv, ya’ni tijoratbop bo‘lishi uchun muhim vazifa bajaradi. Masalan, baqqolchilik mahsulotlari:

1. SHirinliklar nomlari: «*Ayiqcha*», «*Lochin*», «*Olmaxon*», «*Lazzat*», «*Ertak*», ...

2. Ichimliklar nomi: «*Gulbuloq*», «*Zilola*», «*Oqtosh*», «*Joziba*», «*Tyan-SHan*», «*Rohat*», «*Oltin kuz*», «*Mastona*», «*Vodiy*», «*Andijon durdonasi*» va b.

3. Tort nomlari: «*Orzu*», «*Tong*», «*Bahor*», «*Nilufar*», «*Tabassum*», «*Tortiq*», «*Sevinch*», «*Izhori dil*», «*Uchrashuv*» «*Topishmoq*», «*Ertak*»... va b.

¹ Клаус Г. Сила слова. - М.: Наука, 1967. –С. 58.

Agar buning aksi bo'lganda edi, mahsulot nomi diqqatni tortmagan va sotilmay qolgan bo'lar edi. Bulardan tashqari magazin, kafe, kinoteatr, bar va boshqalar nomi ham xuddi shunday ramziydir.

Aytib o'tilgan nomlarning barchasi motivlangan. Iste'molchilarning taxminiy assotsiatsiyalari qayd etilgan predmetlar nomlarini motivlantiradi. SHartli ramziy nomlanish ongli boshqaruv ostida amalga oshadi va aniq pragmatik intensiyaga ega bo'ladi. SHu yo'l bilan motivlangan predmetlar nomlari kishi hayoti va ongida uzoq muhrlanib qoladi.

SHe'riyatda TR o'ziga xos o'rinni egallaydi. O'quvchiga hissiy ta'sir o'tkazish maqsadida she'riyat, nasrda TR keng qo'llaniladi.

Ramziylikning badiiy tahlili uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Xususiy (shaxsiy) ramz.
2. Milliy ramz.
3. Ikki yoki undan ortiq lisoniy umumlashma o'xshashliklar.

Ramziylikning badiiy tahlili har uchala ko'rinishni o'zida qamrab olgan universal holat sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, tilshunoslikda O.Espersen va Dj. Orr, keyinchalik St. Ulmann TRning, so'zning tilda yashab ketishiga va fonetik qonuniyatlar faoliyatidagi anomaliya hodisalariga ta'siri haqidagi masalalarni qo'ydilar.

So'zning til sistemasidagi maqomi fonetik motivlanishdan tashqari (so'z ma'nosining talaffuzi bilan muvofiq kelishi), inson psixikasida motivlanishning boshqa ikki xil ta'siri ostida ham ro'y beradi va o'zgaradi. Bular semantik (istiora, metonimiya ko'chimlari asosidagi obrazlilik) va morfologik (so'zning so'z hosil qilishdagi «tiniqligi») jihatdan so'z maqomining tarixiy o'zgarishi va

taraqqiyotiga, ko‘plab lisoniy va nolisoniy omillar ta’siriga bog‘liq. Fonetik, morfologik va semantik jihatdan motivatsiyalangan so‘zlar ekspressiv bo‘yoqdor va hissiyotlarga boy bo‘ladi¹⁷. SHunday xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlar tilda mavjud bo‘lgan o‘zlariga nisbatan kam ifodali lug‘aviy birliklarni tilning lug‘at tarkibidan siqib chiqaradi¹⁸.

Tilning tarixiy taraqqiyotida so‘zning semantik va fonetik o‘zgarishi yaqqol aks etadi. Albatta, bu jarayon turli omillarning o‘rni va ta’sirisiz amalga oshmaydi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilidagi *kichkina* so‘zi – o‘lchov tushunchasini ifodalovchi so‘z. Uning TRiga xos bo‘lgan xususiyati shundaki, xuddi o‘zidek tushuncha ifodalovchi so‘zlardan iborat bo‘lgan so‘zlar guruhini hosil qiladi. *Kichkina* so‘zi tilimizda kichik o‘lchov tushunchasini ifodalovchi asosiy vositadir: *jajji, mitti, jimit, mimit*.

Xulosa Andijon davlat tillar pedagogika instituti ingliz filologiyasi fakulteti milliy guruhlar talabalari bilan o‘tkazilgan sinov natijalari asosida qilindi. Sinovda 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ulardan 45 nafari qizlar va 15 nafari yigitlar edi. Talabalarga yuqorida aytilgan tushunchani beruvchi so‘zlarni aniqlab berish topshirildi. Sinov o‘zbek tilida olib borildi. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, *kichkina, jajji, mitti, jimit, mimit* kabi so‘zlar ichidan *mitti* so‘ziga ko‘proq e’tibor berilgan, ya’ni *kichkina, mitti* so‘z juftligi ichidan *mitti* so‘zi ustun kelgan. SHuni taxmin qilib aytish mumkinki, *mitti* so‘zi yuqori

¹⁷ Гинзбург Р.С. Смысловая структура слова // Иностранные языки в школе. - 1957 - №5. -С. 79-91, 90; Никифорова О.И. Восприятие метафоры // Ученые записи // М.: МГПИЯ, 1954. -Т.8. – С.310-317, 311-315.

¹⁸ Будагов Р.А. Сравнительно - семасиологические исследования. - М., 1963. -С. 98-105; Porsid W. Das Wunder der Sprache. Bern, 1950. с. 42; Sperber H. einfuehring in die Bedeutungslehre. Bonn; Leipzig, 1923. - С. 38-44.

fonetik motivatsiyaga ega ekan. Boshqa soʻzlar ustidan ham xuddi shunday tajribalar fakultetimizning 2-bosqich talabalari ishtirokida oʻtkazildi. Tajribalar natijalari asosida biz quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Sinonimlar turli motivatsiyaga ega.

2. Ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlardan quyidagi munosabatlar kelib chiqadi. Bir soʻz qandaydir motivatsiyadan mahrum. Boshqasi esa faqat bir turdagi motivatsiyaga ega. Ayrımlari har ikki xil:

- 1) semantik;

- 2) fonetik motivatsiyaga ega.

Bunday holatlarda motivlangan soʻz motivlanmagan soʻzga nisbatan faol va turgʻun boʻladi.

Soʻzlardan biri semantik, ikkinchisi semantik va fonetik motivatsiyaga ega. Semantik motivatsiyalashgan soʻz tilning lugʻat tarkibidan chiqib ketmaydi, aksincha boshqa konseptual sohaga oʻtib ketadi.

Bir soʻz fonetik, ikkinchisi ham fonetik va ham semantik motivatsiyalashgan. Fonetik motivatsiyalashgan soʻz ikki xil motivatsiyaga ega boʻlgan lugʻaviy raqib siquviga bardosh berolmaydi. Til taraqqiyoti jaryonida lugʻaviy birliklar shakli va tarkibi, semantikasidagi oʻzgarishlar turli xil ichki va tashqi omillarning oʻzaro moʻʼjizaviy murakkab munosabatlarining natijasidir. Soʻzning fonetik motivlanishi oʻziga xos muhim ahamiyatga ega. Til lugʻat boyligi boyishining umumiy qonuniyati shundan iboratki, maʼnosi eskirgan, xiralashgan, isteʼmol doirasi tobora torayib borayotgan, ekspressivlik xususiyatini yoʻqotib

borayotgan «qotma» birliklar yangi emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan birliklar bilan o‘zaro raqobatlashadi va bu kurashda o‘z o‘rnini ularga bo‘shatib beradi. Bunday dialektik raqobat kurashi ularning tildan butkul chiqib ketishiga, yoki boshqa lug‘aviy mikrosistemalar tarkibiga kirib ketishiga turtki bo‘ladi.

Inson nutqidagi tovushlarda turli ma’nolar aks etadi. Ma’lum tovushlarning ma’lum ma’nolar bilan muvofiqligini o‘rganish – demak, tilni o‘rganishdir¹⁹.

Belgi – moddiy. Muloqot jarayonida belgilar faollashadi. Moddiy belgilar muloqot jarayonida so‘zlashuvchilar ongida shu belgilarning hissiy tasviri ko‘rinishida aks etadi. Belgilar moddiy belgilarga nisbatan ikkilamchi va ularning faoliyati to‘la ravishda belgilarga bog‘liq hamda ular orqali belgilanadi²⁰.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlashga alohida e’tibor berilmoqda. Bu jarayon tilshunoslikka oid ko‘pgina ishlarda o‘zining ilmiy ifodasini topdi. Fikr moddiy asoslangan bo‘lishi zarur. Nutq xuddi shunday asos bo‘la oladi. Nutq fikrni ifodalash bilan birga, fikrni shakllantiradi ham.

Fonetik ma’no ham ma’lum bir axborotni tashishda lisoniy vositalarga yordam beradi. Belgilar haqidagi tasavvurlar shakl va mazmun haqidagi qadimiy savolga hozirgi davr tilshunosligi pozitsiyasidan turib javob berishni taqozo etadi. Mashhur amerikalik olim CHarlz Sanders Pirs birinchi marta belgilarni tasnif qilishga erishdi. Tasnifga ko‘ra belgilar uch asosiy xususiyatli ifodalariga ega. Ular ifodalovchi va ifodalanmish o‘rtasidagi turli


¹⁹ Блумфилд Л. Язык. - М.: Прогресс, 2005. -261 с. // Семиотика. - М.: Радуга, 1983. - С. 102.

²⁰ Резников Л.О. Гносеологические вопросы семантики. - Л., 1964. –С. 345.

munosabatlarga asoslanadi:

1. Ikonik belgi.
2. Indeks belgi.
3. Ramz.

O‘zak va bo‘linmas bir morfemali so‘zlarning lug‘aviy muammolari qiziqishni orttiradi:



qofiyadosh so‘zlardek turgan bu so‘zlarni na o‘zak va na affiksga ajratsa bo‘ladi. Ammo ularning birinchi yoki oxirgi bo‘g‘inini ularda mavjud semantik yaqinlikka bo‘lgan tovushiy ishora deb qabul qilsa bo‘ladi. Haqiqatan ham bu so‘zlar qarindoshlik atamalaridir. Etimologik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni boshqaruvchi sinxron qoidalar tilda mavjud emas: ikki-egizak. Tovush va mazmun o‘rtasidagi o‘zaro moslik nutq uchun juda muhim. O‘xshash tovushlar bilan birikib, o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar tilda uchraydi. So‘zning emotsional-ekspressivlik darajasini orttirishda ular o‘ziga xos vazifa bajaradi. Ko‘proq tovushga taqlid so‘zlarni misol keltirish mumkin: *qars*, *tars*, *pars*, *qurs*, *chars*, *gurs* kabi so‘zlarda qandaydir tez, qo‘pollik, shitoblik ma’nolari aks etadi.

pirr, *shirr*, *g‘irr*, *zir*, *dir* kabi so‘zlarda qandaydir titroq harakat ma’nosi bo‘lsa, *zuv*, *shuv*, *duv*, *g‘uv* kabi so‘zlarda esa shovqinning kamligi, harakatning tezligi kuzatiladi.

Lug‘aviy sathda tovush va ma’no o‘rtasidagi o‘zaro moslik yashirin tabiatga ega. Negaki sintaksis va morfologiyada ifodalovchi

va ifodalanmish o'rtasidagi diagramm moslik ochiq va majburiydir. Fonemali oppozitsiyada ikonik ma'nodorlik alohida holatda bo'ladi. Bunday muxtorlik alohidalik faktografik xabarlarida ba'zan namoyon bo'ladi.

Poetik tilda tovush fakturasining taassurotli ta'siri namoyon bo'ladi. Bu holat ikki yo'nalishda sodir bo'ladi, ya'ni fonemalar va ularni tashkil etuvchilarni tanlash, guruhlariga birlashtirish. Har ikki ifodali omillar, ular hosil qilgan tasvirlar esga tushib, yashirin tarzda bo'lsa ham bizning oddiy tilimizda faoliyat ko'rsatadi.

Tilda farqlar mavjud. Farqlar turli ko'rinishga ega bo'lgan ikki belgini farqlab olishga yordam beradi. Bular ikonik va ramziy belgilardir.

Ikonik belgilar insoniyat madaniyatida mavjud ob'ekt va hodisalarning xotirada kuchli yoki zaif saqlanishi natijasida paydo bo'ladi. Rassomlik san'atiga mansub bu ikonik belgilar yig'indisi rassom chizgan peyzaj ko'rgazma qatnashchisi uchun ma'lum landshaft yoki hudud belgisi bo'lib xizmat qiladi; undagi ikonik xususiyatlar anchagina to'liq ifodalangan bo'ladi. Hududning yana bir ikonik belgisi sifatida uning topografik planini olish mumkin. Bu kompleks belgi endi ma'lum simvolik elementlarga ega, ya'ni ko'k rang bu erda an'anaviy suv timsoli, jigar rang esa tog'li hududlar timsolidir.

Belgi – ramz ikonik belgidan farqli o'laroq, o'zi ifodalayotgan predmet yoki hodisaga aynan o'xshashi shart emas. «Yo'l yo'q!», «CHapga burilish ta'qiqlanadi» kabi yo'l harakati belgilari ochiq-oydin ikonik xususiyatlarga ega. Belgilar odamlar o'rtasidagi axborot almashish jarayonini ixchamlaydi. Inson o'zi bilan ma'lum

predmetlarni olib yurish, vaqti kelganda, ularni ko'rsatib, biror narsa haqida ma'lumot berish o'rniga ushbu predmetlar ifodasini, ya'ni so'zlarni xotirada saqlab, olib yuradi. Inson tafakkurida, xotirasida saqlangan so'zlar u tushungan olamni aks ettiradi. So'z – birlamchi belgi. Til tabiiy va birlamchi semiotik tizim hisoblanadi. Tilshunoslik esa semiotikaning eng ko'hna tarmog'idir, qolgan barcha belgilar ikkilamchi belgilardir. Bu belgilar so'z singari o'z tuzilishiga ega. Faqat ularning tuzilishi soddaroq, chunki ularning maqsadi sodda va oddiy.

Ushbu atamalarga tayangan holda mimika va muloqot tili o'rtasidagi farqni ko'rib chiqamiz. Mimik imo-ishoralarning ko'pchiligi ikonik xususiyatlarga ega. SHuning uchun ularni mayda birliklarga ajratish mumkin emas. Tovushli til belgilari (morfema va so'z) esa, aksincha sof ramzlar hisoblanadi, chunki ular o'zi ifodalayotgan predmetlarga qisman bo'lsa ham o'xshamaydi deb hisoblanadi. Aynan shuning uchun so'zlar o'zlari bilan etarli darajada erkin munosabatda bo'lishga imkon beradi. Ammo bu erkinlik chegaralangan bo'lib, aynan shu chegaralanish omillaridan biri TRlardir.

Ramzlarning tipik namunasi – bu tildagi ma'noli birliklardir, ya'ni so'zlar va ularning shakllari, so'z birikmalari va gaplardir. Lisoniy ramz to'rt komponentlidir:

1. Nom (xabar tashuvchisi).
2. Denotat (predmet, borliqdagi hodisa va uning nomi).
3. Designat yoki konsept (predmet yoki hodisa haqidagi tushuncha, ma'no).
4. Konnotat (qo'shimcha ekspressiv-hissiy baholash va estetik

mazmun).

Demak, ramzda to‘rt unsur mujassam: nom, denotat, designat, konnotat. Ulardan nom, denotat, designatlar nomlash xususiyatiga ega. Ulardan to‘rtinchisi – konnotatda nom vazifasida (ifodalovchida) xabarning moddiy tashuvchisi (raqam, harf yoki boshqa ramz), designat sifatida esa (ifodalanmish) shu harfning, raqamning yoki ramzning ma’nosi ishtirok etadi.

«Tovush ma’noning ramziy ifodasi bo‘lishi shart».²¹ CHarlz Pirsning «ramz o‘zida ikonik yoki indeks belgini namoyon qiladi» degan g‘oyasi fan oldiga yangi, muhim vazifalarni qo‘yadi va uning kelajagini belgilab beradi. Lisoniy belgining ikonik va indeksal tarkibiga doimiy ravishda baho berilmagan, hatto e’tibor ham qilinmagan. Tilning ramziy tabiati, uning shunday xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa fanlardan keskin farq qilishi hozirgi zamonaviy tilshunoslik metodologiyasida belgilarning ikonik va indeksal belgilarini kerakli tarzda qayd qilishni taqozo qiladi. «YAkkalik nomlanadi, umumiylik esa belgilanadi»²². Haqiqiy ramz umumiy mazmunga ega bo‘ladi. Bu mazmun o‘z navbatida faqat ramz bo‘lishi mumkin. Har bir ramz narsa haqida ma’lumot beradi. CHunki u alohida predmetni, uning turkumi va turini ifodalaydi. Uning ma’nosi muloqotda, vaziyatlarda va turli tasodiflar asosida hosil bo‘ladi. Tasodif va vaziyatlar deganda, aniqrog‘i, moddiy tabiatga ega bo‘lgan talaffuz va yozuv tushuniladi. So‘zning bunday xususiyatlari uning shaklini qanchalik o‘zgartirmasin, har qanday vaziyatlar, holatlarda ham so‘z so‘z holicha qoladi.

Ramziy tabiatga ega bo‘lgan belgilar – yagona belgilardir. Ular

²¹ Степанов Ю.С. Семиотика. –М.: Просвещение, 1978. - Б.115.

²² Степанов ЮС. Семиотика. –М.: Просвещение, 1978. - Б.115.

o‘zlarining umumiy ma’nolari bilan tafakkurni hosil qiladi. Chunki ikonik va indeks belgilar bunday xususiyatga ega emas. Ikonik va indeks belgilarning tilda mavjudlik qonuni ramzning mavjudlik qonunidan farq qiladi. Ikonik belgilarning in’ikosi o‘tmish tajribalarga tegishli. U xotirada obraz shaklida muhrlanadi. Indeks belgilar bo‘lsa hozirgi, zamonaviy tajribaga tegishli. Ramzning in’ikosi real, haqiqiy dalil, asoslardan tashkil topadi. Ramz o‘zining interpretatoriga, uning xulq-atvori, fikr-xayoliga ta’sir etadi. Agar yuqoridagi shart bajarilsa, amalda sodir bo‘lsa, qandaydir narsa aniq qabul qilinadi. «Har bir so‘z – ramz, har bir gap – ramz, har bir kitob – ramz»²³.

Ramzning muhimligi, qadri shundaki, fikr va xulqimizni oqilona ifodalashimizga va kelajakda bo‘lajak ishlarimizni oldindan belgilab olishimizga ko‘maklashadi.

2.2. Unli va undoshlarga xos uslubiy xususiyatlar

Nutq tovushlarining fonostilistik vazifasi haqida gap yuritganda, birinchi navbatda ularning artikulyasion-akustik xususiyatlarini payqab olish lozim. Ko‘pincha, unli tovushlarning ekspressiv jihatida kuchli deb qaraladi va ularning fizik xarakteristikasidagi ton, oberton, tovush kuchi, qisqalik va cho‘ziqlik asosiy xizmatni bajaradi.

Nutq organlariga bog‘liq ravishda nutq tovushlari ham turlicha talaffuz etiladi va eshitiladi. Fonostilistik jihatdan nutq tovushlarining talaffuzidagi emotsional-ekspressivlik va akustik (eshitib) ta’sirlanish tomonlarini o‘rganish muhimdir.

Badiiy tasvirda personaj nutqida unli tovushlarning turlicha talaffuzi qator konnotativ ma’nolarni hosil qiladi:

²³ Ўша ерда.

1. SHodlanish, xursandlik, kayfiyatning yaxshiligini ifodalaydi: Daklatbekov bolalarni to'xtatib, kechqurun ajoyib bir kino ko'rsatilishini shunday ohangda aytdiki, bolalar birdan:-uree-y!-deb chuvalashdi. Kino-o-o-o! (P.Qodirov)

2. Hayratlanish: I-i-i! Naziraxon shofyor bo'lganmi? (S.A) Ii-ya! Hali xojimissan, milisa? dedi hayrat ichida. (U.Umarbekov)

3. Taajjub: Xo'-o'sh, agar, adashmasam kandidatlikni tugatib kelyapsiz, shekilli? (U.Usmonov)

4. Iztirob, o'kinish kabilarni bildiradi: Voy o'lay! SHo'rim qurisi- in! (H.H.)

5. G'azablanish, kuchli to'lqinlanish ma'nosini bildiradi: Tekinxo'rlar! Sen ham tekinxo'rsan! Ushaning qarindoshi. Baqirma menga! Baqirma-a-a! Baqrayma deyaqman senga-a! (O'.Usmonov).

6.Ma'yuslik ifodalaydi: CHol quvonchli ma'yuslikmi, bilib bo'lmaydigan g'alati ohangda: -Ke-etdi-i-i!!!- dedi (S.Ahmad).

7.Ikkilanish ma'nosi: -Yo'-o'q, dedi Toshmamat ikkilanib. Nima, xizmat bormidi? (U.Usmonov).

Badiiy asarda biror bir personajning turli kayfiyatini ifodalash, uning xarakteridagi o'zgarishlarni to'la ko'rsatish uchun yozuvchilar bir matnda aynan bir so'zni turli xil shakllarda keltiradilar: -Yo'qol bu erdan ablah! Yo'qo-ol! Sen ablah shu mudhish xabar bilan qutlagani kelganlshsan? Yo'qo-o-ol! (N.Qobul)

Gapdagi "yo'qol" so'zining turli xil yozilishiga diqqat qilinsa, so'zlovchining turli holati, ya'ni to'lqinlanishi, hayajoni yanada ortib, bo'rttirib borilganligi seziladi.

So'z bo'g'inlarida ishtirok etmagan aloqida, yakka holda olingan bitta unli ham cho'zib talaffuz qilinishi mumkin. Bunda ishonchsizlik,

hayrat, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi: -O'-o'-o'! Ming la'nat. YUzimdagi qora qon-ku! (O'.Hoshimov) Fonostilistik jihatdan bir so'zdagi unli tovushlarni uning turli bo'g'inlarida cho'zib talafuz qilinishi ham ahamiyatlidir.

Matndagi konnotativ ma'no, ayniqsa, bir so'zdagi unli va undosh tovushlar birgalikda takrorlanib talaffuz qilinganida, yanada kuchli ifodalanadi. Bunda tovushlarning nutqiy cho'ziqligi uzoq davom etadi. Bu holat qahramonning ichki kechinmasi, uning ruhiy chushkunligi, iztirobi, achinishi kabilarni real aks ettiradi: -Nima-a-larr deyapsan? Ablah, hali Rustamovga shunday deganman, degin? (O'.Usmonov) Voy, o'la-ayy! Betim ham qolmabdi, qanday jur'at etdim-a, bunga! (O'.Usmonov).

YUqorida qayd qilingan so'zlarning buvday talaffuzi orqali anglashilgan qo'shimcha ma'no nozikliklari kitobxonga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Yig'ilgan daliliy materiallar qiyoslab o'rganilganda, fonetik-orfoepik usulda konnotativ ma'no kuchli ifodalanishini ko'rsatadi. Chunki bu usulda asar qahramonlarining ruhiy holati, tovush talaffuzidagi o'ziga xosliklar, ovozning mikdoriy belgisi aniq ifolangai bo'ladi.

Unli fonemalarda ifodalangan tovush variantligida uslubiy imkoniyat mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, qaerda nutqiy gaplanish bor ekan, u erda uslubiy bo'yoqdorlik kuchli ifodalangan bo'ladi. Bu hodisaning mohiyatini to'la anglagan so'z san'atkorlari o'z asarlari tilini boy va rang-barang qilishga intiladilar.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qo'llash, tushirib qoldirish, orttirish kabilar fonostilistik ahamiyatga

ega bo‘lib, turli xil qo‘shimcha ma’nolar hosil qiladi.

Jumladan, nutqda ularni me’yorida talaffuz qilmaslik ma’no buzilishiga olib keladi. Ammo boshka bir holatda esa, ya’ni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish uslubiy axdmiyat kasb etadi. Masalan: umid-ummid, oshik-oshshiq, boshinga ur-boshshinga ur kabi.

Undosh tovushlarning cho‘ziqligi bir tipdagi undoshlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ham ro‘yobga chiqadi. Bunday takrorlar personajning ruhiy holatini ko‘rsatadi:

Eshik oldidan:

-Voy jonimm-degan cho‘ziq bir ovoz eshitildi. (S.Ayniy)

Keltirilgan misoldagi “jonim” so‘zini “jonimm” shaklida talaffuz etilishi uning denotativ ma’nosiga achinish, iztirob kabi qo‘shimcha ma’no bo‘yoqlarini ham qo‘shganligi ko‘rinadi. Bu o‘z navbatida kitobxon hissiyotiga ta’sir qiladi. U o‘zini voqealar bayoni ichida qatnashayotgandek, shu voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘layotgandek his qiladi.

Fonetik birliklarning uslubiy imkoniyatlaridan asarning badiiyligini ta’minlashda keng foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, ohang muhim rol o‘ynaydi. Ohangning vazifalaridan biri so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash, shu jumladan ma’no kuchaytirish, bo‘rttirishdir. Bu haqda tilshunos olim A.Abdullaevning ishlarida atroflicha ma’lumot berilgan.²⁴

Nutqda fonetik usul bilan yuzaga chiqadigan ustama ma’noli so‘zlarni kuzatish mumkin. Bunday fonetik vositalar nutqning ohangi va mazmun talabidan kelib chiqib, tabiiy ravishda talaffuz qilinadi:

²⁴ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлининг ифодаланиши. -Тошкент. 1987. – Б.8.

a) unlini cho‘zish vositasida ma’noni kuchaytirish:

*O‘n sŷm ŷmarsam ettisi seniki edi. Sen **e-eb** yotarding.*
(«SHaytanat»)

Ushbu gapda unlini chŷzish orqali harakatning davomiyligini ifodalash orqali sŷzlovchining suhbatdoshiga nisbatan salbiy munosabati, ya’ni pichingi ifodalanganini kŷrishimiz mumkin. SHuningdek, ana shu sub’ektiv munosabat orqali «*Sen eyishdan boshqa hech narsa qilmasding*» yashirin axboroti ham ifodalangan.

v) undoshni qavatlash vositasida:

*Sen yig‘lasang ular **mazza** qilib kuladilar.* («SHaytanat»)

Bu gapda **mazza**, so‘zidagi **z** undoshi og‘zaki nutqda ikkita undoshdek talaffuz qilinadi va shu yo‘l bilan ma’no kuchayadi.

Nasrda unlilarni chŷzish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, sŷzlarni notŷg‘ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi.

Tovushlarni uslubiy qŷllash bilan bog‘liq qonuniyatlarni yozuvda aynan aks ettirish uchun fonografik vositalardan foydalaniladi.²⁵

T. Malik asarlarida fonografik vositalar alohida ŷrin tutadi. Buni misollar orqali kuzatamiz:

1. – *Mening jonim ollohning omonati. Lozim bŷlsa omonatni sizning qilichingiz bilan oladi.*

Ulug‘bek kulimsirab bosh chayqadi:

***Yŷ – ŷq...** Qilichim qonsiragan emas.* («Falak»)

2. *Sog‘ odamlar bilan ham **bi – ir** otamlashing...* («SHaytanat»)

²⁵ Ўлдошев М. Кўрсатилган манба. – Т. 2007. – Б. 41.

Birinchi gapda unlini chʻizish xitob, taʼkid maʼnolarini yuzaga keltirish vositasi boʻlib xizmat qilgan. Ikkinchi misolda esa, harakatning davomiyligi, samimiyligi, oʻzaro yaqinlik kabi maʼno munosabatlari ifodalanganligini kʻrishimiz mumkin. Qiyoslang:

*Sogʻ odamlar bilan ham **bir** otamlashing // Sogʻ odamlar bilan ham **bi-ir** otamlashing.*

Kʻrinadiki, ikkinchi gapdagi samimiylilik, oʻzaro yaqinlik kabi maʼno nozikliklari birinchi gapda kuzatilmaydi.

YOzuvchi shuningdek, sʻzlovchining salbiy munosabatini ifodalash maqsadida unlilarni chʻizish usulidan foydalangan:

– *Qyʻllaringdan hech balo kelmasa, nima qilib yuribsanlar dʻxtirman, deb **kerili-ib?*** («SHaytanat») Ushbu gapda harakatning davomiyligi va kinoya maʼnolari bor. SHuningdek, soʻzlovchining unlini choʻzib talaffuz qilishi subʼektiv baho (salbiy) munosabatini ifodalashga ham xizmat qilgan.

YAna:

*«Xumkallaga tilla berdingizmi, **ja-a** ogʻzi qulogʻida, - dedi u yaltoqlanib»* («SHaytanat») gapida esa unlini chʻizish orqali sʻzlovchining voqelikning, yaʼni xursandchilikning meʼyordan oshiqqligini, shuningdek, subʼektiv hayratlanish munosabati ham ifodalangan.

Unlini choʻzib talaffuz qilish soʻzlovchining voqelikka norozilik munosabatini ifodalash uchun ham qoʻllaniladi:

Oʻylab kʻyrib, bir qarorga kelaman.

Yʻ – yʻq, azizim, bunuqa anarxiya ketmaydi. Birga yʻylab, birga qaror qilamiz.

Orfoepik meʼyor boʻyicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak

b'ylgan s'yzlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan qavatlab talaffuz qilinadi. Bu s'yzlovchining ichki ruhiyati, va maqsadini kitobxonga «aynan» etkazish imkonini beradi.²⁶

T.Malik asarlarida undoshlarni qavatlash usulidan ham keng foydalanilgan. Masalan:

*Tajribani to'xtatishga **haqqing** yo'q!* («Falak») gapida «q» fonemasining geminatsiyaga uchrashi qahramonning holati: qat'iylik, cho'rtkesarlik kabi xususiyatlarini va voqelikka sub'ektiv munosabati: noroziligini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Ayrim o'rinlarda undosh tovushlarni qavatlash orqali so'zlovchining muayyan voqelikka, predmetga baho munosabatini ham ifodalaydi.

Masalan: *Endi toychoq demasangiz ham bo'ladi. Ot bo'lib qoldi. Ozgina **eshshakligi** ham bor-u lekin sizning hurmatingizni qilib «ot» desak ham bo'lar.* («SHaytanat»)

Ushbu gapda «sh» geminatsiyasi orqali s'yzlovchining ob'ektga b'ylgan salbiy munosabati ifodasini topgan. SHuningdek, ushbu gap tahlilida eshak s'yzining konnotativ ma'nolarini hisobga olmoq darkor.²⁷

Undoshlarni qavatlash hodisasi nafaqat so'zlovchining voqelikka munosabatini, balki so'zlovchining o'z xarakter-xususiyatini ochib berishga ham xizmat qiladi:

²⁶ Йўлдошев М. Ўша асар. 43-бет.

²⁷ Коннотация хақида қаранг: Ревзина О. Г. О понятии коннотации // Языковая система и её развитие во времени и пространстве: Сборник научных статей к 80-летию профессора Клавдии Васильевны Горшковой. — М.: Изд-во МГУ, 2001; Говердовский В. И. История понятия коннотации // Науч. докл. высш. шк. филол. науки. — 1979. — №2.; Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. — М. 1986; Мамадалиева М.А. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. -Тошкент. 1997.

Anhor bo'yini gaplash. Tuzukroq qorilarni aytir.

— *Qorilarning xo'rrozini toptiraman. («SHaytanat»)*

Bu o'rinda qahramonning xarakteridagi yziga ishonch, manmanlik, g'urur kabi ichki tuyg'ulari undoshlarni qavatlash yordamida berilgan.

Xullas, T.Malik asarlarining badiiyligini oshirishda fonetik va fonografik vositalarning o'rni beqiyos.

Fonostilistik jihatdan so'zdagi bir undoshning miqdoriy takrori u ifodalayotgan ekspressiv bo'yoq miqdori darajasini belgilaydi. Chunki so'zdagi konnotativ ma'no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega.

Undosh tovushlarni so'zning turli o'rinlarida ikkilantirib talaffuz qilish ham uslubiy ahamiyatga ega. So'z boshidagi undosh tovushining ikkilantirilishi o'ta hayajonlanish yoki personaj nutqiga xos kamchilikni ifodalasa, so'z oxiridagi birdan ortiq takrori shu so'zning cho'ziq talaffuzini ko'rsatadi. Bu hodisaga oid qator misollar ishda keltirilgan.

Har qaysi uslub vositalari to'g'ri tanlangan taqdirdagina nutqning jozibadorligi, obrazlilik ta'minlanadi. Aks holda quloqqa g'aliz eshitiladi, tinglovchining gashiga tegadi. SHuning uchun ham turli fonetik vositalardan foydalanishda, birinchi navbatda adabiy me'yor talablarini hisobga olish kerak. SHu bois zarur fonetik vositani tanlayotganda matnning mazmuni, uni qanday uslub va janrga tegishli ekanligi, unda qaysi davr tasvirlanayotganligini e'tiborga olish zarur.

Fonetik vositalarning stilistik imkoniyatlari haqida gapirganda anafora, epifora, alliteratsiyaning uslubiy xususiyatlariga ham

to‘xtalishni lozim topdik.

Unli va undosh tovushlar takrori, bo‘g‘in takrori poetik nutqda, ayniqsa, xalq ogzaki ijodi namunalarida ko‘p uchraydi. Fonetik vositalarni ataylab takrorlash orqali so‘z san‘atkorlari o‘z tasvir bayonining kuchini oshiradilar, his-tuyg‘ularini bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Badiiy takrorning bir ko‘rinishi bo‘lgan alliteratsiya turli tillar poeziyasida qadimdan qo‘llanib kelinadi Hozir ham alliteratsiya asosiga qurilgan she‘rlar anchagina uchraydi²⁸.

She‘riyatda alliteratsiya orqali obrazlilik va ta’sirchanlik bo‘rttiriladi, uslubiy ravonlik, so‘zlarning ohangdorligi vujudga keltiriladi. Alliteratsiya qator boshida uchrashiga ko‘ra gorizontal yoki vertikal yo‘nalshssa bo‘lishi mumkin. SHoir H.Olimjonning “Baxtlar vodiysi” she‘ridan olingan quyidagi parcha har ikkala alliteratsiyaga misol bo‘la oladi:

Ko‘m-ko‘k,

Ko‘m-ko‘k...

Ko‘klam quyoshidan

Ko‘kargan qirlar

Po‘lat yagrinlarni

Ko‘targan erlar ko‘m-ko‘k.

Misoldagi bir xil tovush bilan boshlanuvchi turli xil so‘zlar tashqi ko‘rinish uchun, dabdababozlik uchun takrorlangan emas, balki bu so‘zlarning har biriga uslubiy jihagdan qo‘shimcha ma’no

²⁸ Кўнгулов Р. Ҳ-Олимжон асарлари тилини ўрганиш бўйича материаллар//Ўзбек тили грамматик курилиш ва диалектологияси масалалари. - Самарканд, 1972. - 28 б; Шофқоров А Миртемир шеърларида аллитерация// Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2006. - № 4. - Б. 91-94.

ottenkalari yuklangandir.

Alliterativ holatdagi tovush takrori soʻzdagi leksik maʼno ustiga qoʻshimcha mazmuniy maydon hosil qiladi. SHoir uchun sheʼrdagi u yoki bu soʻzning akustik jarangdorligi va uning taʼsir kuchini oshirish muhim hisoblanadi.

Oʻrni bilan ishlatilgan fonetik takror badiiy tasvirda muhim lingvostilistik hodisa boʻlib, musiqiylik, ritm va ohangdorlikni taʼminlaydi. Ayni holatda ijodkorning ruhiy kechinmalarini ham aks ettiradi Badiiy asarlarda tovush takrorini stilistik vosita sifatida foydalanishda H.Olimjon, Gʻ.Gʻulom, Oybek, E.Vohidov, M.YUsuf, Gʻulom Mirzo kabi adiblarning mahoratini alohida taʼkiddash lozim. Ular asarlaridagi har qanday takror asarga badiiy boʻyoq berish, baholash momentini hosil qilish, emotsionallik uchun yuksak mahorat bilan ishlatilgan.

III BOB. Supersegment fonetik vositalar va ularning uslubiy xususiyatlari

Maʼlumki, nutq zanjirini hosil qilishda fonetik jihatdan segment (asosiy qism) va supersegment (ustama) elementlar deyarli bir xil ishtirok etadi. Ammo ular nutqda qoʻllanishi jihatidan oʻziga xosliklarga ega²⁹. Supersegment elementlar: intonatsiya, pauza va urgʻu kabilar oʻziga xos semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. Quyida supersegment elementlarning uslubiy

²⁹ Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. - Тошкент, 1991 - 5 - б

xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

3.1. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari

Intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ammo badiiy uslubda intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi nihoyatda kuchlidir.

Ma'lumki, intonatsiya lotincha *intonare* - baland tovush bilan talaffuz etaman degan ma'noni bildiradi. Intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolarini va ekspressiv-emotsional bo'yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik -melodik tomoni hisoblanadi. U ovozning baland-pastligi, ohangdan tashkil topadi. Quyidagilar intonatsiyaning sostavli elementlari hisoblanadi: nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi, nutq tempi, logik urg'u, fraza urg'usi kabi. B.MIning mazkur qismida intonatsiyaning sostavli elementlari, ularning asosiy funksiyalarini izohlashga, shuningdek, bu borada tilshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlarga munosabat bildirishga harakat qilamiz.

Nutq melodikasi jumlada ovozning balandligi bo'ylab harakati bo'lib, bunda nutq jarayonida ovozning ko'tarilib tushishi e'tiborga olinadi. Nutq ritmi esa urg'uli va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning birin-ketin kelishi bo'lib³⁰, nutqiy jarayonda kommunikativ vazifani yuzaga chiqarishga hamda emotsional munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Nutq intensivligi talaffuzning nafas chiqarishning kuchayishi yoki pasayishi bilan bog'liq bo'lgan kuchli-kuchsizligi bo'lib³¹, nutq intensivligi vositasida nutqning emotsional vazifasi oydinlashadi. Nutq intensivligi vositasida

³⁰ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.Т.: "Ўқитувчи", 1985, 60-бет.

³¹ Ҳожиёв А. ўша китоб, 62-бет.

soʻzlovchining emotsional holati, tinglovchiga, nutq mazmuniga boʻlgan munosabati ifodalanadi.

Nutq tempi italyancha **tempo** (tempus-vaqt) soʻzidan olingan boʻlib³², nutq oqimining tez-sekinligi va nutq parchalari orasidagi pauza bilan amalga oshadi. Nutq tempi nutqiy vaziyat haqida maʼlumot berish bilan birga, soʻzlovchining holati, nutqning emotsional vazifasini oydinlashtirib beradi.

Logik urgʻu gapdagi biror boʻlakni (maʼnosini kuchaytirib, taʼkidlab) ajratuvchi urgʻu (maʼno urgʻusi) boʻlib, gapdagi har bir soʻzni logik urgʻu bilan aytish (ajratish) mumkin.³³ Odatda logik urgʻu olgan boʻlak kesim oldiga joylashadi yoki baland ovoz bilan, ajratib talaffuz qilish orqali logik urgʻu ifodalanadi. Logik urgʻu vositasida nutqning kommunikativ vazifasi aniqlanadi. Soʻzlovchining maqsadi, uzatmoqchi boʻlgan axborotning aktualligi belgilanadi.

Fraza urgʻusi maʼno jihatdan muhim boʻlgan nutq taktini (sintagmani) urgʻu yordamida ajratish boʻlib, fraza urgʻusi ayni vaqtda fonetik-sintaktik rol bajaradi, yani soʻzlarni takt va frazalarga birlashtiradi.³⁴ Sintagma grekcha **suntagma** - birlashgan narsa maʼnosini bildiradi. Sintagma nutqning mazmun va ritmik-melodik jihatdan bir butunlikni hosil etuvchi semantik-sintaktik boʻlagi hisoblanadi. Sintagma bir yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlishi, hatto gapga teng boʻlishi mumkin. Shuningdek, sintagma ikki soʻzning sintaktik bogʻlanishi bilan yuzaga keladigan nutq birligi, yaʼni soʻz birikmasi va gapdan ham iborat boʻladi.³⁵ Fraza urgʻusi vositasida soʻz, jumla, soʻz birikmasi, baʼzan gap ajratib talaffuz etiladi va bu

³² Хожиев А. Ўша китоб, 61-бет.

³³ Хожиев А. Ўша китоб, 62-бет.

³⁴ Хожиев А. Ўша китоб, 104-бет

³⁵ Хожиев А. Ўша китоб, 75-бет

orqali tinglovchiga yetkazmoqchi bo'lgan axborot aktuallashtiriladi, ya'ni tinglovchining e'tibori qaratilishi lozim bo'lgan mazmun intonatsion jihatdan ajratiladi.

Intonatsiyaga xos grammatik va uslubiy xususiyatlar A.A.Reformatskiy, A.A.Kanter, N.V.CHeremisina, A.Gulomov, A.Abduazizov, M.Mirtojiev, E.Qilichev, H.Yo'ldosheva, I.Hojialiev va boshqalar tomonidan o'rganilganligi darajasi ishda tahlil qilib berilgan.

Intonatsiya og'zaki nutqqa xos bo'lib, alohida bir sistemani tashkil qiladi. Bu sistemani nutq melodikasi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u kabilar tashkil qilib, doimo nutq tarkibida yaxlitligicha yashaydi. Nutqiy aloqa jarayonida intonatsiya asosan ikki vazifani bajaradi: 1) nutq oqimining ma'no bo'laklarga ajratish va shu asosda yangi mazmun ifodalash. Bunda nutqiy pauza xam muhim rol o'ynaydi. CHog'ishtiring: Ulim, yo'q shafsat. -Ulim yo'q, shafqat. Odam bo'l, akang kabi axmoq bo'lma. Odam bo'l akang kabi, axmoq bo'lma. 2) nutqda emotsional ottenkani ifodalaydi. Bu ottenkalar o'ziga xos uslubiy ma'no kasb etadi.

Boshqacha aytganda, intonatsiya so'z va gapning libosi bo'lib, u til va nutq birliklarining cheksiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Intonatsiya nutqiy jarayonda, eng avvalo, ta'sir etish vositasi sifatidagi xususiyatini namoyon qilar ekan, bunda eshitilishi jihatdan tovushning balandligi yoki pastligi farqlanadi.

Uslubiy jihatdan intonatsiya ta'sir etish vazifasidan tashqari ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi. Jumladan, intonatsiyaning o'zgarib borishi so'zlovchining ruhiy holati haqida ma'lumot beradi. So'zlovchi nutqining mazmuni uning maqsadi ifodasi sifatida

shakllanadi, intonatsiya esa mazmunning ob'ektiv yoki sub'ektivligi haqida ma'lumot beradi.

Intonatsiyaning emotsional jihat, asosan, konnotativ ma'no ifodalaydi. Konnotativ ma'no denotativ ma'no ustiga yuklangan bo'ladi. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishda muhim vosita xam sanaladi. Jumladan, nutqda sekin so'zi intonatsiyasi tajriba qilinganda, quyidagi ma'nolarni berishi kuzatiladi: yumshoq iltimos, tasdiq, ogohlantirish, taklif, o'ksinish, sanash, xabar, chogishtirish, farqlash, hayrat, do'q, ishonch, kuchli qo'rqinch, so'roq, buyruq va h. k.

Fonostilistik jihatidan so'zlashuv va badiiy iutq uslublaridagi intonatsiya alohida mohiyatga ega. So'zlashuv nutqi uslubida intonatsiyaning uch tipi uchraydi: grammatik-sintagmatik; logik-ekspreesiv; emotsional- eksnressiv. Bulardan emotsional-ekspressiv intonatsiyada his-tuyg'uning kuchli ifodalanishi aniqlandi. Talabalar bilan o'tkazilgan tajriba birgina **"sen"** so'zining yigirmadan ortiq ingonatsion xilma-xillikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Badiiy nutqda emotsional ifoda vositasi sifatida intonatsiya muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya nutqni jonlantirish va emotsional ta'sirchan qilishga yordam beradi. Nasriy matnda intonatsiya turli tinish belgilari va grafik vositalar yordamida, poeziyada esa grafik vositalar hamda misralarning joylashishiga qarab ham belgilanadi. BMIda badiiy nutvda intonatsiyaning so'roq, xitob, darak, kinoya, gazab, ta'kid, yalinish, ikkilanish, inkor kabi ko'rinishlariga misollar keltirilib taxdil etilgan. Jumladan, lirik shoir Hamid Olimjonning "Baxtlar vodiysi" she'rining vazni va ohangi ham poetik intonatsiyani kuchaytirib borishga mo'ljallangan. Dastlabki misralardagi tinch va

mayin ohang asta-sekin hayqiriqqa aylanadi. Buning uchun shoir emotsional turoqlarga katta e'tibor beradi. Mazmunga ko'ra intonatsiyani o'zgartiradi. Tinch xabar, so'rash, taajjub, bezovtalanish, shiddatlanish bir-biri bilan almashinib turadi. Badiiy nutq uslubida esa intonatsiyaning so'roq, taajjub, hayratlanish, undash kabi ko'rinishlari faol qo'llanadi. Asardagi ayrim qaxramonlar nutqiy intonatsiyasi ularga xos xarakterni ko'rsatadi.

3.2. Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari

Kishilar orasidagi aloqa aralashuvda pauza noverbal informatsiya vositasi, uslubiy figura sifatida ishtirok etadi va situativ, ijtimoiy hamda psixologik omillar bilan bog'liq holda o'ziga xos ahamiyatga ega. Pauzada tinglovchi diqqatini tortish, araz, kinoya kabi qator qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi.

Masalan: **“O'tgan kunlar”** romanidagi bosh qahramonlardan biri Kumushbibi nutqida nauchali holat ishlatilgan **“Siz -o'shami?”** gapi semantik-stilistik jihagdan taxlil qilinsa, unda o'ndan ortiq qo'shimcha semik ma'lumotlar yig'ilganligini ko'ramyu. Bular: so'roq, taajjub, ishonchsizlik, hayrat, suyunish, xursandlik, kutilmaganlik, sevinch, ichki hayajon, sog'inch, talpinish, dovdirash va hokazolar. Tasvir mazmuni jarayoniga xos va moe bunday gapni tanlash va qo'llash A.Qodiriyning so'z ishlatish uslubigagina xosdir.

Pauzalar she'riy nutqda muhim ahamiyatga ega. Ular she'riyatda oddiy nutqqa Karaganda ikki baravardan ham ortiq uchraydi. Jumladan, ritmik pauza misrada etishmagan bo'g'in, so'z yoki jumla o'rnini qoplaydi; ma'no va vaznga uygunlashib, cho'ziqlik qosil qiladi. She'riy misra o'rtasida kelgan pauzalar uni bo'laklarga

bo‘ladi, bu bilan alohida so‘zlar yoki so‘z birikmasining ma’nosi, mohiyatini ta’kidlash vazifasini o‘taydi. She’riy nutqqa kuchli bosim va to‘lkinlanish bag‘ishlaydi. Bu jihatdan Karaganda, shoir G‘.G‘ulomning "Turksib yo‘llarida", "Sen etim emassan" she’rlari diqqatga sazovordir.

Bu she’rlardagi shoirning pauzaviy tasviriy vositalari g‘oyaviy-eetetik vazifani ta’kidlab ko‘rsatishga, lirik kaxramonning kurashchan tabiatini yorqin his qildirishga xizmat qiladi. Bunday hissiyot she’rda alohida-alohida qatorlarga ajratib yozilgan pazali so‘zlar vositasida qosil qilinganligini ko‘rish mumkin.

Pauza (to‘xtam) gap ichida sintagmalar hosil qilib, uning maqsad va mazmuniga ta’sir qiluvchi fonostilistik vosigadir. U og‘zaki nutqda muayyan til (nutq) birliklarini ta’kidlash, ayirish, kuchaytirish, diqqatni tortish kabi konnotativ ma’nolarni ifodalaydi. Pauza barcha janr asarlarida badiiy tasvirning muhim fonostilistik komponenta bo‘lib xizmat qiladi. Poeziyada turli emotsiyalarni ifodalasa, prozaik va dramagik asarlarda personajlarning ruhiy holatini, nutqiy xarakateristikasini aks ettiradi.

3.3. Urg‘unng semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari

O‘zbek tilida urg‘u supersegment (ustama) vositalardan biri, u tilning turli satxlariga tushib nugq jarayoni zanjirini tashkil qilishda muhim fonostilistik vazifa bajaradi. Ammo urg‘uning uslubiy roli haqida xatto o‘zbek tili stilistikasiga oid darsliklarda ham .ma’lumot berilmagan. Holbuki, urg‘u ma’lum bir so‘zni to‘g‘ri talaffuzini belgilash bilan birga, uning stilistik bo‘yoqdorligini ham ko‘rsatadi.

Urg‘u orqali qo‘shimcha ma’no bo‘yog‘ini hosil qilishda ohang

asosiy rol o'ynaydi. Bunda so'zning denotativ ma'nosi o'zgarmay, turli konnotativ ma'nolar hosil bo'ladiki, bu o'z navbatida uslubiy rang-baranglikni vujudga keltiradi. CHog'ishtiring: So'zlayman (to'g'ri, odatdagicha anglatish)- so'zlayman (ta'kid, uqtirish, yalinish); kesildi (to'g'ri, odatdagicha anglatish)-kesildi (kesatish, uqtirish) kabi.

O'zbek tilida logik urg'u boshqa ko'pgina tillardagi kabi fikriy jihatdan ahamiyatli bo'lgan elementni ajratish, kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu ajratish o'sha elementning kuchli aytilishi bilan bog'liqdir. Bunday kuchaytirish shu elementning so'nggi bo'g'inida o'zining eng yuksak nuqtasiga etadi. Bu hodisa havo oqiminigina kuchayishi emas, balki umumiy tonning-ohangning ko'tarilishidir. Logik urg'u biror narsani ta'kidlashda, birini ikkinchisiga zid qo'yishda ham uchraydi. Logik urg'u o'z tabiatiga ko'ra grammatik formalar bilan ham aloqadordir.

Masalan: Qaratqich va tushum kelishigidagi so'zlar mazmunan birinchi o'rinda bo'lganida, logik urg'u olishi bilan birga, ko'pincha o'z belgilarini ham saqlaydi. Belgisiz qo'llangan takdirda esa logik urg'u olmaydi. Nutqda bunga e'tiborsizlik natijasida mantiqiy-uslubiy nuqsonlar vujudga keladi. SHuningdek, urg'u gapning mazmuniga aniqlik kiritadi va gapdagi bo'laklarning qimmatini belgilaydi.

Logik urg'u ma'lum darajada gapda so'zlar tartibi bilan ham boglanadi. Mantiq urg'usiga qarab gapning tartibi ham o'zgarishi mumkin: U poezdda keladi-U keladi poezdda. Ikkinchi gapda ta'kidlash, bo'rttirish ma'nosi kuchli ifodalangan. Odatdagi tartib logik-grammatik va uslubiy talab bilan o'zgaradi. SHe'riyatda mazmun jihatdan asosiy xisoblangan bo'lak o'z tipik o'rnidan qat'iy

nazar logik urg‘u olib, hamma vaqt misra boshiga chiqariladi:

Shitirladi hovling to‘la kuz,

Shitirladi xazonlar- jonim. (U.Azim)

Yuqoridagi misolda mantiq urg‘usi kesim bo‘lakka tushishi natijasida ma’no kuchaytirilgan.

Emotsiyalarni ifodalash, ekspresivlik uchun logik urg‘u olgan bo‘lakdagi undosh tovush ba’zan takrorlanadi ham: Dalada mala qildik.

Emfatik (hayajon) urg‘u gapning biror bo‘lagi yoki bo‘laklariga so‘zlovchining kechinmasi, hayajoni, sub’ektiv munosabati kabilarning yuklatilganligini ko‘rsatuvchi intonatsion qismidir. Uning logik urg‘udan farqi shundaki, logik urg‘u tinglovchi diqqati qaratilgan bo‘lakni ajratib ko‘rsatadi. Hayajonli (emfatik) urg‘u esa so‘zlovchining o‘z sub’ektiv munosabati qaratilgan bo‘lakni ayirib ko‘rsatish vazifasini o‘taydi. Logik urg‘u gapda bir bo‘lakka tushadi, emfatik urg‘u bir necha bo‘lakka, hatto gapning ma’lum bir soetaviga ham tushishi mumkin. Logik urg‘uda tovush kuchi asosiy o‘rinda turgani xolda, emfatik urg‘uda tovush cho‘ziqligi asosiy o‘rinda turadi.

Sye’riyatda musiqiylikni hosil qiluvchi vositalardan biri ham emfatik urg‘udir. Ma’lumki, emfatik urg‘u tushgan bo‘lak boshqalarga qaraganda balandroq, cho‘ziqroq talaffuz etiladi. Qofiyaga emfatik urg‘uni yuklash uning xushohangligini oshiradi.

Emfatik urg‘udan zamondosh shoirlarimizdan biri Muhammad YUsuf ham san’atkorona foydalangan. SHuning uchun ham uning she’rlari oddiy, poetik mazmunli, mayin va erkin kuylanadi. Qofiyali so‘zlar emfatik bo‘lakka xos cho‘ziq talaffuz qilinadi:

*Sen yo suv bo'yiga cho'kkan guloyim,
Seni yo ko'klardan to'kmish xudoyim.
Bulbulning patiday barging muloyim,
Binafiyu, binafish, xoksor binafsha.*

"Binafsha" she'ridan olingan ushbu parchadagi "guloyim", "xudoyim", "muloyim" so'zlari o'zaro ohangdosh bo'lib, musiqiy jarangdorlik hosil qilgan.

Xulosa qilganda, urg'u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim fonetik vositalardan biridir.

Urg'u vositasida paydo bo'lgan turli xil emotsional-ekspressiv ma'nolar badiiy tasvirni jonli, obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi

XULOSA

Tildagi fonemalar o'zining asosiy vazifasi so'z ma'nolarini farqlash bilan birga emotsional-ekspressiv va applyativ vazifani ham bajaradi. So'zlovchi va tinglovchi bu xususiyatlatssi tovush vositasida bayon qiladi va anglaydi. Fonostilistikada nutq tovushlarining emotsional-ekspressiv va akustik (eshitib) ta'sirlanish tomonlari o'rganiladi.

So'zdagi nutq tovushlarining turli xil talaffuzi xilma-xil konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Bunday ma'nolar so'zdagi denotativ ifodaga qilingan ilova bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchining

turli xis- hayajoni, ta'sirlanishi va munosabatini aks ettiradi.

Nutq tovushlaridagi qo'shimcha bo'yoq ton, oberton (yordamchi ton), rezonator (aks sado), tembr kabi prosodik vositalar yordamida hosil qilinadi. Bu hodisa unli va undosh tovushlarning talaffuzida yorqin ko'rinadi. Badiiy tasvirda personajlar nutqida unli tovushlarning cho'zib ishlatish orqali: shodlik, g'ayrat, ikkilanish, taajjub, gazab kabi qator konnotativ ma'nolar beriladi. Xuddi shunday qo'shimcha ma'no bo'yoqlari undosh fonemalarni ikkilantirish, so'z tarkibida takrorlash orqali amalga oshiriladi. Badiiy iutqning tovush tuzilishi fikr mazmuni bilan organik boglangandagina uslubiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Fonostilistik jihatdan unli va undosh tovushlarning cho'ziqlik darajasi ekspressiv bo'yoq miqdorini belgilaydi. Bu miqdoriy belgi asar qahramonlarining ruhiy holati va xarakterini belgilaydi. SHuning uchun ulardan foydalanish badiiy tasvirni jonli va jozibali qiladi.

Badiiy tasvirda talaffuzida turli sabablarga ko'ra fonetik qiyofasida o'zgarish bo'lgan so'zlar personajlar nutqini individuallashtirish, ularga xos xususiyatlarni real aks ettirish, satirik vaziyat yaratish, she'riy qofiya talabi, musiqiylik, nugqiy tejamlilik bilan bog'liq qator ma'nolarni hosil qiladi. Bunday konnotativ ma'nolar fonostilistik nuktai-nazardan ular paradigmatic va sintagmatik munosabatga kirishganida yorqin namoyon bo'ladi.

Fonetik jihatdan tovush takroriga asoslangan allkteratsiya, assonans, epifora va boshqalar badiiy tasvirda muhim fonostilistik hodisa bo'lib, emotsionallik, ritm va ohangdorlikni ta'minlaydi.

Nutqda supersegment elementlar, asosan, uchga bo'linadi: intonatsiya, pauza, urg'u. Bularning har biri o'ziga xos semantik-

grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. Jumladan, fonostilistik jihatdan intonatsiyaning logik yoki logik-ekspressiv hamda emotsional-ekspressiv ko'rinishlari ahamiyatli bo'lib, ular orqali so'zlovchining ruhiy holati, kayfiyati, hissiy tuygusi: sevishtirish, xudirish, ajablanish, erkalash, qo'rqinch, g'azab, qayg'urish kabi qator konnotativ ma'nolar ifodalanadi. Bunday ko'shimcha ma'no bo'yoklari nutqni jonlantirish va ifodali qilishga yordam beradi.

Pauza gap ichida sintagmalar hosil qilib, uning maqsad va mazmuniga ta'sir qiluvchi fonostilistik hodisadir. U ogzaki nutqda muayyan til (nutq) birliklarini ta'kidlash, ayirish, araz, kuchaytirish, diqqatni tortish kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Pauza noverbal axborot vositasi sifatida situativ, ijtimoiy hamda psixologik ahamiyatga ham egadir.

Urg'u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan fonetik vositalardan biridir. So'z urg'usi semantik-uslubiy tomondan so'z ma'nosi va talaffuzini to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. Ayrim hollarda so'z bo'g'inlariga tushgan urg'u uning denotativ ma'nosiga ta'sir qilmay, konnotativ ma'nosini o'zgartiradi (so'zlayman-so'zlayman (ta'kid)). Badiiy tasvirda emfatik (hayajon) urg'usidan keng foydalaniladi. Unda muallifning ruhiy kechinmasi, his-hayajoni, sub'ektiv munosabati kuchli ifodalangan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1992. -134 b.
2. Abduazizov A. Fonostilistik vositalarning o‘rganilishiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. -1985. -2-son. -B. 24-28.
3. Arutyunova N.D. Lingvisticheskie problemy referensii // NZL. XIII: Logika i lingvistika. -M., 1982. -S. 11-15.
4. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. -M.: Sov. ensiklopediya, 1960. -496 s.
5. Balli SH. Fransuzskaya stilistika. -M.: 1961. -394 s.
6. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. -M.: Iskusstvo, 1979.
7. Benvenist E. Obshchaya lingvistika. -M.: Progress, 1974. -447 s.
8. Blumfeld L. YAzyk. -M.: Progress, 2005. -261 s.
9. Blumfeld L. YAzyk. M.: Progress, 2005. -261 s. // Semiotika. -M.: Raduga, 1983. -B. 102
10. Budagov R.A. Sravnitelno-semasiologicheskie issledovaniya. -M., 1963. -S. 98-105.
11. Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. -M.: Nauka, 1963. -256 s.
12. Voronin S.V. Fonosemanticheskie idei v zarubejnom yazykoznanii. -L.: LGU, 1990. -199 s.
13. Voronin S.V. Osnovy fonosemantiki. - L.: LGU, 1982. -244

s.

14. Gayduchik S.M. Fonostilistika kak odin iz razdelov fonetiki. Intonatsiya. -Kiev, 1978. -S. 33-41.

15. Ganiev J.V. Sotsiofonetika i fonostilistika (k metodike eksperimenta) // Sotsialno–lingvisticheskie issledovaniya. -M., 1976. -S. 52-61.

16. Golub I.B. Stilistika sovremennogo russkogo yazyka. Leksika. Fonetika. -M., 1976.-207 s.

17. Dmitriev N.K. K izucheniyu tyurkskoy mimologii // Dmitriev N.K. Sroy tyurkskix yazykov. -M., 1962. -S. 59-84.

18. Isakov Z. O‘zbek tilida so‘z turkumlarining o‘zaro munosabati va unda yuklamalarning o‘rni. Filol. fanlari nomzodi ... dis. -T., 2005. -24 b.

19. Klaus G. Sila slova. - M.: Nauka, 1967. -S. 58.

20. Mirtojiev M. Tovushlardagi ma’no. -T.: O‘zbekiston, 1982. -24 b.

21. Ne’matov H.G‘., Bozorov O. Til va nutq. -T.: O‘qituvchi, 1995. -32 b.

22. Ne’matov H, Rasulov R. O‘zbek sistem leksikologiyasi asoslari. - T.: O‘qituvchi, 1995. - B.12.

23. Nurmonov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1992. -238 b.

24. Rustamov A. Qofiya nima? -T.: Fan, 1976. -39 b.

25. Sossyur F. de. Kurs obshchey lingvistiki // Sossyur F. de. Trudy po yazykoznaniyu. -M., 1977.-S. 31-273.

26. Stepanov YU.S. Osnovy obshchego yazykoznaniya. - M.:

Prosvetshenie, 1975. -S. 8-9.

27. Stepanov YU.S. Semiotika. -M.: Prosvetshenie, 1978. - B.115.

28. Trubetskoy N.S. Osnovy fonologii. -M.: Inostrannaya literatura, 1960. -372 s.

29. SHarafitdinov X. Poetik fonetika // O‘zbek tili va adabiyoti. -1978. -2-son. - B. 53-55.

30. Eltazarov J. So‘z turkumlari haqidagi lingvistik nazariyalar. -Samarqand, 1996. -56 b.

31. YAkobson R. Zvuk i znachenie // S.V.Voronin. Fonosemanticheskie idei v zarubejnom yazykoznanii. -L.: LGU, 1990. -S. 39.

32. YAxshieva G. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar: Filol. fanlari nomzodi ... dis. -T., 1996. -132 b.

33. O‘zbek tili grammatikasi. -T.: Fan, 1975.-B. 608.

34. Qilichev E.R. O‘zbek tilining praktik stilistikasi // Pedagogika institutlari filologiya fakultetlari studentlari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: Fan, 1980. - B. 88-101.

35. Qilichev E.R. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. -T.: O‘qituvchi, 1985. -104 b.

36. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. - I tom. -T.: Fan, 1963. - B. 332.

37. Qo‘ng‘urov R. Sub‘ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. -T.: Fan, 1980. -166 b.

38. G‘afurov B. Tilimizdagi eng faol harfni bilasizmi? //

Ma'rifat. – 2004. - №38.

39. G'ulomov A.G., SHOabdurahmonov SH., Asqarova M.
O'zbek tili dasrligi: 9-sinf uchun. -T.: O'qituvchi, 1986. -259 b.

40. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -T.:
O'qituvchi, 1985. -144 b.

41. Haydarov. A. Tovush takrorining uslubiy
xususiyatlari//BuxDU ilmiy axboroti. – 2007. - №1. –B.74-76.

42. Haydarov. A. Pauzaning fonostilistik
imkoniyatlari//Filologiya masalalari ilmiy maqolalar to'plami –
Toshkent:Fan, 2007. –B.116-118